

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND

DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIY ISH KAFEDRASI

**BOLA TARBIYASIDA KELIB CHIQUADIGAN MUAMMOLAR VA
ULARNI YECHIMLARI.**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Xaydarova Feruza

Ilmiy rahbar: dots.Bo'riev N

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2011 yil ___ ___dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№ ___).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil ___ ___dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (bayyonnoma № ___).**

Samarqand – 2011.

KIRISH

I.Bob BOLALAR TARBIYASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1.1.Bola tarbiyasi jarayoni to'g'risida ilk yondashuvlar.

1.2.Bola tarbiyasining rivojlanishi, tarbiyasi va kamoloti.

1.3.Bolalarda tarbiya jarayonida estetik tasavvurlarni shakllantirish.

II.Bob BOLANI IJTIMOIYLASHUV JARAYONI VA ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

2.1. Bolaning ijtimoiy – ma'naviy shakllanishida oilaning o'rni...

2.2.Sharq va g'arb olimlari qarashlarida bola tarbiyasi to'g'risida fikrlar

2.3. Bola rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va muhitning roli

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi o'z-o'zini boshqarish, ya'ni mahallalar tizimida oila jamiyatning ijtimoiy poydevoridir. Shunga ko'ra, jismoniy sog'lom, ma'nan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga yetkazish oiladan boshlanadi. Oila hayotning asosiy maqsadi aholini qayta tiklash, bolalar tarbiyasidir. Bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatidir. Mana shu oilaviy munosabat madaniyatning takomillashishi yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari, ularga rioya etishning to'g'ri yo'lini ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning hatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida boshlanadi. Har bir inson, u katta va kichikligidan qat'i nazar, o'zining his-tuyg'usini, ichki tug'yonini, orzu-umidlarini munosabat jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida, hamkorligida, o'zaro ta'sirida vujudga keladi.

Bola tarbiyasida kelib chiqadigan muammolar va ularni yechimlari mavzusini tanlashimdan asosiy maqsad, bu mavzu O'zbekistonda, balki butun dunyoda o'rganilib, kelayotgan asoisy muammolardan biri hisoblanadi.

XXI asr buyuk o'zgarishlar davri bo'lishiga shubha yo'q.

Bu o'zgarishlar eng avvalo inson tafakkurida uning fikrlar tizimi ta'sirida ro'y berilishi muqarrar. Tabiiyki bu holat insonning o'zgarishini talab qilib, bir necha vazifalarni yuklab qo'yadi.

Оила институтини янада мустаҳкамлаш, бу борада олиб бораётган ишларни янги босқичга кўтариш алоҳида аҳамият касб этади. Оила мустаҳкамлиги — бу жамият мустаҳкамлиги ва демак, давлат

барқарорлигининг асосидир. Ўзбекистон Президенти Ислом Каримов таъбири билан айтганда, **“оила соғлом экан – жамият мустаҳкам, жамият мустаҳкам экан – мамлакат барқарордир”**¹.

Bu vazifalarga birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari yosh avlodning bilim olishiga yuqori malakali kadrlar bo'lib, o'z yurti va xalqiga sitqidildan xizmat qilishga, ozod yurt saodati uchun halol mehnat qilishga o'rgatishni nazarda tutadi. Zero Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek **“Farzandlarimiz bizdan кўпа, bilimli, bizdana zukko va aqlli bo'lishlari kerak”**² degan so'zlari yuqoridagi fikrlarimizning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Shu asnoda yoshlar kelajagimiz poydevori ekan, ularni keltirilgan mana shu vazifalar asosida ongini oshirishimiz, tarbiyalashimiz lozimdir. Bu esa jamiyatimizda mavjud bo'lgan muhitga, ta'lim tarbiyaga hamda oilaga bog'liq.

Uzoq asrlardan buyon ajdodlarimiz oilaviy hayotni sog'lom turmush tarzining asosiy qismi deb, oilaviy hayotning muqaddasligini e'tirof etib, oilada farzandlarni hayot gulshani deb, ularni baquvvat, aqlli, odob-andishali qilib o'stirishga katta ahamiyat berishgan. Oila pokligi, ma'naviy madaniyati, uning islom shariati asosida shakllanishi, zo'ravonlik asosiga qurilgan munosabatlarga yo'l qo'ymagan. Farzand tarbiyasi oilaning muqaddas vazifasi bo'lib hisoblangan.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir”³.

Bu tushunchalar tarbiya jarayonining asosi hisoblanadi.

¹ Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008 йил – 58-бет.

² I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi”. ”Toshkent” Sharq. 1997 yil

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T., “O'zbekiston” 1997.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritganda, uning aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisa ekanligi ta'kidlanadi. Inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o'rinda turar ekan.

Har bir shaxs oilada tarbiya topar ekan, dastlab unga ta'sir etuvchi asosiy omillar – ota-ona va atrof muhitning ta'siri bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim va anima belgilaydi?

Tarbiyaviy ishning samaradorligi mana shu savollarga javob topishga bog'liq.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari: Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan oshob-axloq qoidalariqa mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarni ehtiyoj va intilishlarni tarkib topishdan iborat. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab shunday degan edi: “Janobi haq insonlarning asl xilqatqa iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan.

Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib, kata bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzuq o'ssa, nasihatni quloqqa olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil, bir bir rasvoyi odam bo'lib chiqadi”.

Malakaviy bitiruv ishining obyeksi va predmeti: Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishida tarbiyaning ta'siri kattadir. Yuqorida biz tarbiyadan maqsad – barkamol insonni tarbiyalash, degan edik. Xo'sh barkamol inson deganda kimlarni tushunmoq kerak?

Sharqona tarbiya uning yillar mobaynida islomiy axloqiy qoidalari asosida tarkib topib borgani tarixdan ma'lum.

Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar alayhissalom hadislarini, ulamo va hukamolarimizning kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Islomiy tarbiya bolani yeti jihatdan tarbiyalashni maslahat beradi. Bular: sog'liq va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy- ruhiy tarbiyadir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning asosini mavzuda atroflicha to'xtalib, ochib berishga harakat qilaman.

I. Bob. Bolalar tarbiyasi haqida umumiy ma'lumot

1. Bola tarbiyasi jarayoni to'g'risida ilk yondashuvlar

Bola tarbiyasi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerak.

(U.Chenning)

Rasululloh sallollohu alayhi vassallam: “Farzandingizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar!” deganlar. Shu bilan birga “Hech bir ota o'z farzandiga xulq-odobdan yaxshiroq meros qoldirolmaydi”¹, deb tarbiyada ota-onaning rolini belgilab o'tganlar. O'sib va rivojlanib boruvchi har bir bola tarbiya ob'yekti hisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Lekin bolalaik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murrakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Odamning munosabatlar doirasida kishilar bilan aloqasigina emas, balki, tabiatga, hayotga bo'lgan munosabatlari ham kiradi.

Mana shu xil ko'p qirrali aloqalar va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobiliyati va qiziqishini, o'z bilimi va uquvini namoyon qiladi, o'z ishiga vazifasiga, burchiga, xalqiga vataniga, o'zi-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi. Tabiiyki, bolada bu fazilatlar faqat tarbiyaning mahsulidir.

¹ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq . “Toshkent” 1996-yil

Bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida tarbiya asosiy o'rinda turadi. Tarbiya "Pedagogika" ya'ni "bola tarbiyasi fani" degan ma'noni anglatib, kishiga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlari, har bir shaxsni yosh bosqichlarlarda uyg'un rivojlantirish qonuniyatlari to'g'risidagi fandır¹

Bola tarbiyasida haqida Abdulla Avloniy shunday deydi: "Bolani salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmoq, yomon xulqlardan asrab o'stirmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak zarurdir"².

Tarbiya qiluvchilar tabib kabidirki, tabib xastaning badanidagi kasaliga da'vo qilgani kabi, tarbiyani bolaning vujudidagi jahl markaziga yaxshi xulq degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berib katta-katta qilmak zarurdir.

Bu allomaning qarashlari bizga bola tarbiyasida asosiy qo'llanma hisoblanadi.

Shu qarshlarga tayangan holda tarbiyalangan bola hech qachon otanasining yuzini yerga qaratmaydi.

Bolaning kamol topishda va uning xulqiga ijtimoiy va biologok omillarning ta'siri kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Sababi odamning xulqiga munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat nazariy ham ta'sir etadi. Bolaning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Shundagina bolaning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro'yobga chiqadi. Demak, bolani rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi momillarni, bu omillarning tabiatini, bolaning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

¹ P. Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" 1993-yil

² Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. "Toshkent" 1996-yil

Mashhur rassom Pablo Pikasso 80 yoshga kirganda shunday yozgan: “Yosh tushunchasi va keksalik inson o’zi ruhan qarigandagina ma’lum ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda men ancha keksayib qolganligimga qaramay, o’zimni 20 yoshimday his qolmoqdaman”. Ya’ni inson umri ma’lum davrlarga bo’linar ekan, uning har bir bosqichi shaxsning o’zi va yaqinlariga qilgan ezgu ishlarining qadr-qimmatiga ko’ra baholanadi. Shu bois ham inson shaxsni o’rganilganda uning taraqqiyotning u yoki bu bosqichdagi yosh xususiyatlarni bilish ahamiyatlidir.

Odamning hayotiy yo’lini boshi, kamol topishining negizi aslida ollohning inoyati bilan bola dunyoga kelishiga asos solingan dastlabki onlardan boshlanadi.

Keyingi taraqqiyot bosqichlari qator ijtimoiy, biologik, ruhiy, jismoniy omillarga bog’liqdir.

Shu vaqtgacha bola tarbiyasi jarayoni bilan bevosita ijtimoiylashuv jarayoni ham birgalikda o’rganilib kelinmoqda. Insoning ijtimoiylashuv jarayonning davrlarga bo’lib o’rganilishda juda katta e’tibor qaratilgan. Bir qancha davriy sxemalar ham taklif etilgan. Bu tushunarli, zero insoning hayotiy yo’li va asosiy lahzalari tarixiy taraqqiyot mobaynida o’zgaradi.

Bir avloddan-ikkinchi avlod taraqqiyotiga o’tishning o’zi ham qator o’zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Davrlarga bo’lishga qaratilgan klassifikatsiyalarning o’zi ikki turli bo’ladi:

- a) Juz’iy (alohida davrlarni yana qo’shimcha davrlarga bo’lish, davrlar ichidagi davrlar);
- b) Umumiy (inson umrining barcha bosqichlarini o’z ichiga oladi). Masalan, J.Piajening bolaning ijtimoiylashuvining 3 bosqichini ko’rib chiqamiz.
 - Sensomotor intellekt bosqichi (0-2 yosh). Bunda asosan 6 bosqich farqlanadi.
 - Konkret operatsiyalarni bajarishga tayyorlash va uni tashkil etish bosqichi (3-11 yosh)

- Formal operatsiyalar bosqichi (12-15 yosh). Bu davrda bola nafaqat bevosita ko'rib turgan narsasi, balki mavhum tushunchalar va so'zlar vositasida ham fikr yurita oladi.

D.B.El'kon bolalik davrini 3 davrga bo'ladi:

- a) ilk bolalik
- b) bolalik
- v) o'smirlik

Har biq bosqichning o'ziga xos yetakchi faoliyati, o'zgarishlari va rivojlanish shart – sharoitlari mavjud bo'ladi va ularni bilish tarbiyachilar uchun katta ahamiyatga ega.

Har bir bosqichda faoliyat motivlari ham o'zgaradi, ularning o'zgarishi shaxs ehtiyojlari va talablari darajasining o'zgarishiga mos tarzda ro'y beradi.

Inson hayotining barcha davrini yaxlit tarzda qamrab olgan klassifikatsiyalardan biri butun jahon olimlarning qaroriga ko'ra, 1965 – yili xalqaro Fanlar Akademiyasining maxsus simpoziumida qabul qilingan sxema hisoblanadi. Bu sxema B.G.Anan'ev, E.Erikson va Birrenlar taklif etgan klassifikatsiyaga asoslangan bo'lib, umumlashtirilgan toifalashdir (1-jadvalga qaraymiz).

1-jadval

| Yosh davrlari | Erkaklarda | Ayollarda |
|----------------------|-----------------------|-----------------------|
| Chaqaloqlik | 1-10-kun | 1-10-kun |
| Emiziklik davri | 10-kundan 1 yoshgacha | 10-kundan 1 yoshgacha |
| Ilk bolalik | 1-2 yosh | 1-2 yosh |
| Bolalikning 1- davri | 3-7 yosh | 3-7 yosh |
| Bolalikning 2-davri | 8-12 yosh | 8-11 yosh |
| O'smirlik davri | 13-16 yosh | 12-15 yosh |

| | | |
|----------------------|------------------|------------------|
| O'spirinlik davri | 17-21 yosh | 16-20 yosh |
| O'rta yetuklik davri | | |
| 1-bosqichi | 22-35 yosh | 21-35 yosh |
| 2-bosqichi | 36-60 yosh | 36-55 yosh |
| Keksalik davri | 61-75 yosh | 56-75 yosh |
| Qarilik davri | 76-90 yosh | 76-90 yosh |
| Uzoq umr ko'ruvchi | 90 yoshdan ortiq | 90 yoshdan ortiq |

Bu jadvalga asoslanib, yosh davrlarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Chaqaloq rivojining ilk bosqichida sezgi muhim o'rin egallaydi. Barcha inson chaqaloqlari muayyan turdagi xissiy axborotni farqlash va unga reaksiya qilishga tug'ma qobiliyatga ega bo'ladi.

Avvallari chaqaloq xissiy axborotni, xissiyotning uzluksiz to'g'risida bo'ladi va axborotlarni farqlay olmaydi, deb hisoblanardi. Taniqli faylasuv va psixolog Uilyam Jeyms shunday yozgan edi: "Kichkintoyning ko'zlari, quloqlari, terisi va ichaklari bir paytning o'zida dunyoni yagona, loyqa va betaraflik sifatida qabul qiladi"¹

Hozirgi tadqiqotlarning ko'pchiligi Jeymsning bu tavsifini unchalik aniq emas, deyishadi.

Chunki, hayotning dastlabki soatlaridan bola atrofga tanlab reaksiya qiladi. Bir oygacha idrok qilish qobiliyati kamroq rivojlangan bo'ladi va 30 sm dan uzoqroq masofaga joylashgan predmetlarni u noaniq dog' sifatida qabul qiladi. Shundan keyin eshitish va ko'rish sezgilari tez rivojlana boshlaydi.

To'rt oylik bo'lganda bola xona ichida harakatlanayotgan, odamni diqqat markazida tutib tura oladi.

¹ M.Vohidova "Bolalr psixologiyasi" "Toshkent" 1999-yil.

Bu davrlarda bola kulishni ham o'rganib, atrofdagi narsalarga saylab reaksiya qilgani uchun, kattalar uni hozir nimani istayotganini hisobga olib harakat qiladilar. Yig'i bolaning qorni ochgani yoki boshqa o'ng'aysizlikni sezayotgani to'g'risida kattalarga axborot beradi, kulgi yoki shunga o'xshash yuz ifodasi mamnuniylikni ifodalaydi. Mana shu tafovutning o'zi bolaning reaksiyalari ijtimoiy xarakterga ega ekanini bildiradi.

Uch oylik chaqaloq onasini boshqalardan ajrata oladi. Bola uni shaxs sifatida idrok qilmaydi. U onasi bilan bog'liq ba'zi belgilarga ta'sir qiladi ko'z, ovoz, uni tutish va boshqa.

Bolaning ta'siri onani tanigandan dalolat beradi. U boshqalar emas, faqat onasi qo'lga olganda yig'idan to'xtaydi, boshqalarga emas faqat unga qarab ko'proq kuladi. U xonada paydo bo'lsa, qo'lini uzatib unga talpinadi, yoki chapak chaladi, mobodo emaklay olsa, onasiga qarab harakat qiladi.

U yoki bu reaksiyaning ham yoki ko'p uchrashi ham madaniy tafovutlar bilan izohlanadi.

Sakkiz –to'qqiz oylik bolalar berkitilgan predmetlarni axtara boshlaydilar, chunki ular jismlar ko'z o'ngida yo'q bo'lsa ham mavjud ekanini tushuna boshlaydilar.

Muayyan odamlarga mehr uyg'onishi ijtimoiylashuvning muhim bosqichini tashkil qiladi. Ona bilan bola o'rtasida birlamchi munosabatlar kuchli tuyg'ularni uyg'otadi va shu asosida ijtimoiy rivojlanishning murakkab jarayonlari boshlanadi.

Birinchi yilning oxiriga kelib bola, ona va boshqalar o'rtasidagi munosabatlar o'zgara boshlaydi. Bola endi faqat gapirishni emas, tik turishni ham biladi, ko'pchilik bolalar o'n to'rt oyda mustaqil yura boshlaydi.

Ikki uch yoshda bolalar oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini tinchlantirish yoki ularning g'ashiga tegishni o'rgana boshlaydi. Ikki yoshli bola ota-onalardan biri ikkinchisiga jahl qilsa xafa bo'lishi yoki ota-onasining g'ashiga tegishi ham mumkin.

Bir yoshdan boshlab bola hayotining ko'p vaqtini o'yinlarga sarflaydi. Dastlabki paytlarda yolg'iz o'zi o'ynaydi, keyinchalik u kimningdir o'yinga sherik bo'lishini talab qila boshlaydi. O'yin jarayonida bola harakatlarni muvofiqlashtirishni va kattalar olamini o'rgana boradi.

Bola yangi ko'nikmalarni egallash bilan birga kattalarga taqlid qila boshlaydi.

Bir yoshdan to'rt-besh yoshgacha bola intizomiga va o'zini boshqarishga o'rganadi. Bu esa birinchi navbatda o'zining tabiiy ehtiyojlarini nazorat qilishni taqazo etadi. Ular turli hatti-harakatlarni, jumladan kattalar bilan muomalani o'zlari, mustaqil bajarishga o'rganadilar. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ona mehriga, yaqinlari e'tiborga to'yinganligi bolaning bir yoshdan keying taraqqiyoti, ona tili o'zlashtirish va ruhan tetik bo'lishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud ekan. Ma'lum sabablarga ko'ra tuqqan onasidan ayrilgan, ma'lum vaqtda ayriliqda bo'lgan go'dakning rivojlanishida, ovqatlanishidan tortib aqliy rivojlanishi hamda tilni o'zlashtirishda qator muammolar paydo bo'lishi ham isbotlangan.

Demak, 3 yoshga kelib bola ruhiyatida tabiiy tarzda paydo bo'ladigan psixologik ziddiyatlar – 3 yoshlilik ziddiyati, tengqurlar jamiyatidagi uning o'rni, tilni o'zlashtirishi bevosita ilk yoshlikda bolada ko'rsatilgan mehr-muhabbatga, e'tiborga bog'liq¹.

Harakatli va obrazli fikrlash asosida maktabgacha yoshdagi bola olti yoshga yetganda unda so'zli, ya'ni, lug'aviy - mantiqiy tafakkur intensiv ravishda shakllanib boradi, ma'lum bir tartibga solingan fikrlarni bayon etishga o'zidagi mavjud bilimlar asosida to'g'ri xulosalar chiqarishga qodir bo'ladi. Boladagi lug'aviy mantiqiy fikrning rivojlanishi undagi mavjud bilimlar shuningdek, u bola

¹ M.Inomova "Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". Toshkent. 1999-yil.

bilimlarining qay darajada umumlashganligiga hamda unda tafakkur operatsiyalari qanchalik rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning lug'at boyligidagi so'zlarning soni 4,5 mingtagacha yetadi; uning tarkibida barcha gap bo'laklari bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshi an'anaviy tarzda bog'cha yoshi deb yuritiladi. Chunki aksariyat bolalar bu davrda maktabgacha ta'lim muassasalari hisoblangan bog'chalarga boradilar, u yerda maxsus dasturlar asosida bilish ehtiyojlarini qondirib, maktabga tayyorgarlik bosqichi o'taydilar. Lekin, xarakterli-ki, bog'chaga borolmagan bolalar ham, maktabga borgach, o'zlarining bog'cha tayyorgarligini o'tgan tengqurlariga yetib oladilar.

Demak, yosh davrining xususiyati shundaki, bola qanday sharoitda bo'lmasin, agar uning yonida mehribonlik qilishi, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatilishi kattalar bo'lsa, u bu davrdagi barcha ehtiyojlarni qondira oladi. Bu davrning yetakchi faoliyati o'yin faoliyati bo'lgani uchun bola turli o'yinlar, jismlari, rolli, o'zidagi ijtimoiy hayot me'yorlarini o'zlashtirishga bo'lgan talabini qondiradi.

I. 2. BOLA TARBIYASINING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA KAMOLOTI

Bolalar bizning kelajagimiz! Ular maqsad va g'oyalimiz yo'lida kurashmoq uchun yaxshi qurollangan bo'lishlari kerak.

N.K.Krupskaya

O'sib va rivojlanib boruchi inson tarbiya ob'ekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi.

Bola rivojlanishi - bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki hayot davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Lekin, bolalaik va o'smirlik, o'spirinlik davrida rivojlanish niyatida kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Bolaning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Sababi odamning xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odamlari va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Shundagina bolaning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini, xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Bolalar bog'cha yoshidanoq o'z aqliy imkoniyatlari darajasini kengytirishga bo'lgan ehtiyojni qondiradilar. Aynan shu davrda bola tilida ishlatiladigan "Nega?", "Nima uchun?", "Qanday" qbilidagi savollar va ularga kattalardan

olingan asosli va tushunarli javoblar bolani bilish jarayonlrini takomillashtirish, bilishga imkon beruvchi psixik funksiyalari idrok, xotira, tafakkur, diqqat, nutq kabilarni rivojlantiradi bilimlari diapazonini kengaytiradi. Mutaxassislarning ta'kidlashkariga qaraganda, maktabgacha taraqqiyot yoshida bola umri davimida miyasida hosil bo'ladigan ma'lumotlarning deyarli yarmini qabul qilib bo'ladi.

Rivojlanish bosqichining uchinchi yarmida, bola o'zidagi ijtimoiy ehtiyojlarni qondira boshlaydi.

Bu jamoada yashash, jamoada o'z o'rniga ega bo'lish va unda o'zining "Meni"ni ta'kidlay olish ehtiyojidir. Bu ehtiyoj uch yoshli bolaning tilida "Men", "Men o'zim" kabi so'zlarni ishlata boshlashi va shu orqali o'zining eng yaqinlaridan ayri his qila boshlashidan boshlanadi. Bunday o'zgarish bola uchun oson kelmaydi. Shuning uchun ham "uch yoshlilik inqirozi" qator qiyinchiliklar, injiqlklar, agressiv xulq bilan birga muayyan bo'ladi.

O'yinchoqlarni olib, otichlar, o'zini yerga urib yig'lashlari yaxshi ko'rib yeyadigan narsalarga ham zarda qilishlari va boshqalar aynan shu inqirozning boshdan kechirilayotganidan darak beradi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, zamonaviy bolalarning televizor oldida ko'p vaqt o'tkazishi, "dendi" o'yinlarga rujo' qoyishi aynan bu ehtiyojlarning qondirilmaganligiga olib keladi Bunday bolalarning xarakteri o'yinlarni cheklashlaridan tashqari, ulardagi ma'naviy mafkuraviy tasavvurlarida ham bo'shliq paydo bo'lishi, odamlar, ular o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida ham noto'g'ri fikrlar paydi bo'lishi xavfi bor.

Shuning uchun ham bolalar bog'chasida tashkil etiladigan rolli va suyujetli o'yinlar, ularda barcha bolalarning faol ishtiroki bolada ijtimoiy ko'nikmalarning to'g'ri rivojlanishiga olib keladi.

Bog'cha yoshidan o'tgan bolaning maktab davri boshlanadi. Bu davrning ahamiyatli tomoni shuki bolaning bog'cha yoshi davrida to'plagan shaxsiy

tajribasi, til boyligi, bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham boshlaydi.

Jnevalik psixolog Jan Piajening ma'lumotlariga ko'ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burilishlar ro'y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo'lib, ma'lum tushuncha tartibga tushadi, endi u nko'proq o'zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo'ladi.

Shuning uchun ham ular ba'zan ota-onalari o'ylanib qoladigan mavmum matematik vazifalarni ham o'qituvchisi o'rgatganday tezda yechadigan bo'lib qoladi. Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi real tashqi olamni, uning qanday bor bo'lsa, shunday mavjud xususiyatlari doirasida idrok qilib, anglay boshlaydi.

Boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari- o'qishda, sportda, bolalar orasidagi nufuzi va obro'si kata ahamiyat kasb eta boradi. Bu davrda bolalarning qaysi jinsga ttaalluqli ekanligini teran anglab, maktabda "o'g'il bolalar" va "qiz bolalar" guruhi shakllanadi. Har bir guruhning o'ziga yarasha qiziqishlari, mashg'ulotlari bo'lib, qizlarning davrasida bo'lish, masalan, o'g'il bola uchun hattoki, noqulay bo'lib qoladi.

Bu davrda bola jazo bilan rag'batlantirish o'rtasidagi farqni ajrata boshlaydi va nima qilib bo'lsa ham jazolanmasdan, ko'pchilikning nazaridan qolmaslikka harakat qiladi. Shu bois ham oilada va maktabda bolaning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart-sharoit ayni bu davrda o'zining sezilarli samarasini beradi¹.

O'smirlik va o'spirinlik davrlari maktab va boshqa ta'lim maskanlarida o'qish davrlarida yetakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, unda bola bilim olish bilan bog'liq malaka va ko'nikmalarni orttirishdan tashqari, shaxs sifatida ham muhim o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

¹. Оила маънавияти. Ўзбекистон Республикаси. Жамоатчилик фикрини ўрганиш «Ижтимоий фикр» Маркази. Ўқув қўлланма. Тошкент -2007 й.

O'smirlik davri eng murakkab va shu bilan muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim hislati shundan iboratki, u bolalikdan o'spirinlik yoshlikdan yetuklikka o'tish davridir.

O'smirlik - organizm taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik faoliyatining muhim ahamiyatini kasb etadi.

O'smirlik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan, xarakterlanib, bu davrda tananing va suyaklarning qotishi ro'y beradi.

Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham bola fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan nomaqulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular, albatta, asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bola tezda achchiqlanadigan bo'lib qoladi.

O'smirlik davridagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishonchli va foydali yo'li bu uning biror narsaga turg'un qiziqishga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilishdir.

Bu davrda kattalar e'tibor berishlari lozim bo'lgan yana bir holat bor. Bu o'smirning o'zligini ta'kidlash uchun turli zararli odatlarni o'zlashtirishdir.

Masalan: o'g'il bolalar sigareta chekish, gilyohvand moddalarni iste'mol qilish orqali o'z shaxsini boshqalari tengqurlari davrasida uqtirmoqchi bo'lishadi.

Shuning uchun buni kattalardan o'smirga alohida e'tibor yaxshi o'qishi uchun shart-sharoit, uning shaxsiyatiga xizmat talab qilinadi.

Ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish, o'qishdagi yutuqlarini vaqtida rag'batlantirib turish, hamkorlikda mustaqil ravishda to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatish ancha yaxshi ijobiy natijalar beradi.

I.2. BOLALARDA TARBIYA JARAYONIDA ESTETIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

Bolalarda estetik tasavvurlarning shakllanishi ular “arsenali”dagi faoliyat turiga ham bog’liq. Mustaqil fikrlash genezisining tahlili tasviriy faoliyatini mustaqil fikrlashda odamning keyinchalik insonning ichki ruhiyatiga tadrijiy-fiziologik jihatidan eng yaqin faoliyat ekanligini anglash oson. Fikrlab ko’raylik. Ulg’ayayotgan bola ongidagi dastlabki fikrlar avval tavirlar vositasida bayon etiladi.

Bu qalam, ruchka, flamasterda bajarilgan turli chiziqlar, bo’yoqlardagi turli surtmalar tarzidagi kichik lavhalar, fikrlar tasviridir. Faqatgina oddiy ko’z bilan maxsus yo’naltirilmagan nigoh esa bu fikrlarni “o’qiy olmaydi”. Chunki bu fikr “boshqa tilde bitilgan”. Bolalarning eshitgan ertaklari, ko’rgan multfilmlari o’z imkoniyatlari darajasida illyustratsiyalar ishlashi fikr bildirishning, anglashning bir shaklidir.

Bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish mazmunini belgilashning didaktik asoslari, bu jarayonda ota-ona va farzand munosabatlarining o’rni tadqiq etiladi. Bu borada sharqona tarbiya uning yillar mobaynida islomiy axloq qoidalari asosida tarkib topib borgan tarixdan ma’lum. Qur’oni Karim oyatlari, Payg’ambar alayissalom hadislari, ulamo va hukamolarning hisoblari tarbiyamizning manbai bo’lib xizmat qiladi. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Islomiy tarbiya bolani yetti jihatdan tarbiyalashni maslahat beradi. Bular sog’liq va badan tarbiyasi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, aqliy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy-ruhiy tarbiyadir¹.

¹ Abdulla Avloniy “Istiqlol fidoiylari “Sharq” Toshkent 1993-yil

Rasulliloh (s.a.v): “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini odobini ham yaxshilanglar!” – deganlar. Shu bilan birga, “ Hech bir ota o’z farzandiga axloq-odobdan meros qoldirmaydi”, deb tarbiyada ota-onaning rolini belgilab o’tganlar.

Islomiy (sharqona) tarbiya barcha mo’min-musulmonlarni nihoyatda xush xulqli, shirin so’zli, oliy janob bo’lishga da’vat etadi.

Bir rivoyatda yaxshi tarbiya ko’rganing o’nta nishonasi sanab o’tiladi.

- 1.Xalq to’g’ri deb topgan narsaga noto’g’ri deb qaramaslik.
- 2.O’z nafsiga insof berishni so’rash.
- 3.Boshqalardan ayb qidirmaslik.
- 4.Birovda yomonlik sodir bo’lsa , uni yaxshilikka yo’yish.
- 5.Agar gunohkor uzr so’rasa uning uzrini qabul qilish.
- 6.Munojirlar hojatini chiqarish.
- 7. El g’amini yeyish.
- 8.O’z aybini tan olish.
- 9.El bilan ochiq yuzli bo’lish
- 10.Odamlar bilan shirin muomalada bo’lish.

Turli tarixiy davrlarda tarbiyaning maqsadi ham, xususiyati ham o’zgarib boradi. Buni iptidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm va kapitalizm formatsiyalari misolida ham ko’rish mumkin.

Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiyaning maqsadi oddiy bo’lib, shunchaki insonning hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumida quldorlar va qullarning paydo bo’lishi tarbiyaning xususiyati va maqsadini ham o’zgartirdi. Quldorlarning boalari hukmron bo’lishga intilar, bosqinchilik urushlari olib boorish uchun kasbiy san’atini o’rganib bordilar. Qullarning bolalari oddiy qora ishni bajarish, mehnat jarayonida ishtirok etishga o’rgatildi.

Feodalizm tuzumiga kelib tarbiya keskin tabaqalana boshladi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivoj topa borishi ta'lim mazmunini o'zgartirib yubordi, ta'lim asta-sekin ilmiy xarakter kasb eta boshladi, bu o'z navbatida umumiy ta'lim kurtaklarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Endi feodal bolalariga ilmiy bilimlar berish, ularni maxsus maktablarda tarbiyalash zarurati tug'ildi.

Kapitalizmga kelib, tarbiyaning tabaqalashish xususiyati yanada kuchliroq sezila boshladi. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarning rivojlanishi ishlab chiqarish korxonalarida ishlash dastgohlarini boshqarish, ish unumdorligini oshirish ishchilardan savodxonlikni, ilmi bo'lishni talab etdi. Bu davrga kelib, ishchilarning bolalariga ham birmuncha ilm berish, o'qish davrida ularga shaxsiy mulkni muqaddas ekanligini uqtirib borish tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lib qoldi.

Aqliy tarbiya - inson hamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati amalga osha boradi. Bunda insonning normal jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar bo'lishi kerak.

Insonning aqliy rivojlanishi sotsial muloqat va tarbiya ta'sirida intensive rivojlanib boradi. Agar tarbiyachi o'z vaqti va o'rnida rejali ravishda uning bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsata borsagina aqliy rivojlanish muvaffaqiyatli kechadi. Demak, aqliy tarbiya deganda tarbiyachining o'quvchilar aqliy kuchini va tafakkurini rivojlantirish, unda aqliy mehnat madaniyatini tarkib toptirishga qaratilgan maqsad yo'lidagi faoliyati tushuniladi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, uning mazmuni barcha fanlar bo'yicha bilimlar sistemasini bilib olishni va shu asosda yoshlarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, tafakkur va nutq qobiliyatini o'stirishdan iboratdir.

Aqliy tarbiya barcha fanlardan umumiy ma'lumot berish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga maktab dasturlari asosida bilim berilib ularga xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish kabi hislatlar taraqqiy ettirilgan.

Abu Nasr Farobiy inson aql – zakovati xususida fikr yuritib bunday deydi:
“Barcha masalan: muhokama va mulohazani tezda tushuna oladigan uning ma’nosini anglaydigan so’zlovchining maqsadi aytilgan fikrning chinligini payqay oladigan bo’lsin”¹.

1. Xotirasi juda baquvvat bo’lsin, ko’rgan – eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esdan chiqarmay, yodda saqlab qoladigan bo’lsin.

2. Zehni shu darajada tez va o’tkir bo’lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin.

3. So’zlari aniq bo’lsin, fikrini va aytmoqchi bo’lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon etsin.

4. Bilim va o’qishda muhabbati bo’lsin, o’rganmoqchi bo’lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o’zlashtira olsin.

Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama kamol topishining asosini tashkil etadi. U mehnat unumdorligini oshiradi mehnatga ijodiy munosabatini tarkib topdiradi.

Axloqiy tarbiya – axloq-ijtimoiy ong sohlaridan biri hisoblanib, har bir kishining, jamiyat va oiladagi yurish - turishi tartib qoidalarning yig’indisi sifatida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, insonning tevarak –atrofidagi voqea va hodislarga bo’lgan munosabatdan uning axloqi namoyon bo’ladi. Xalqimning axloqiy fazilatlarini qadim zamonlardan buyon boyitib kelgan.

Axloq –odobga oid fikrlar “Avesto” kitobida qadimgi bitiklarda, pandnomalarda va boshqa yozma manbalarda keltirilgan.

O’tmishdagi ulug’ allomalarning axloq haqidagi ko’plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatini yo’qotgan emas.

¹ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. “Toshkent” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti. 1993 yil.

Jumladan, qomusiy olim Abu Nasr Farobiy axloq fazilatlarini haqida gapirar ekan, uning xislatlari haqida quyidagi fikrlarni bildirdilar.

1. Bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukmmal taraqqiy etgan bo'lishi kerakki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin...

2. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarni o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan "Xursandchilik" lardan jirkansin.

3. Haqiqat va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, uning (ruhi) yolg'on va yolg'onchilardan nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

4. G'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin.

5. Dirham, dinor va hi kabi turmush buyumlarga jirkanish bilan qarasin.

6. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchi, adolatsizlikka, jabr-zulum o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, adolatli bo'lsin.

7. Adolatli bo'lsin ammo qaysar bo'lmasin...

Bola shaxsning kamoloti uning umri davomida oshib boraveradi.

Bu fazilat insonning boshqalar bilan muomalasida, voqelikka jamiyatga bo'lgan munosabatida va uning xatti xarakatlarida fe'l – atvorida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya, umuman olganda, tarbiyachilar tomonidan bolalarga axloqiy tasavvurlar tizimida shakllantirishni, axloqiy his –tuyg'ularni, voqea-hodisalarga to'g'ri munosabat bildirish kabilarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Insonning axloqiy qiyofasi butun umri davomida shakllantirib boradi. Inson onadan mehnatsevar ham, badjah bilan ham tug'ilmaydi-bu va shunga o'xshash axloqiy sifatlar bolani o'rab olgan ijtimoiy muhitning, tarbiyaning ta'siri hisoblanadi.

“Tarbiya ikki negzda - axloq va aqllilikka tayanmog’i lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni o’stirsa, ikkinchisi o’zgalar illatidan himoya qiladi. Demak, tarbiya ham axloqqa, ham insoniy munosabatlarga, asrlar osha xalq tajribasidan sinovdan o’tib/ o’zining umrboqiyiligini isbotlagan qadriyatlarga, an’an va urf-odatlarga bog’lansagina kuzatilgan natijaga olib keladi”¹

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya inson kamolotiga ta’sir etadigan eng qadimiy tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Umumta’lim maktablarga amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari o’quvchilarning salomatligini mustahkamlash, ularni mehnatga, mustaqil mamlakatimizni himoya qilish va tayyorlashdan iboratdir.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifa o’quvchilarga mehnat ta’limiga oid bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishda o’rgatib, hayotga ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir. Mehnat tarbiyasi tushunchasi umumiy bo’lib, bu tushuncha bir qancha xususiyatlarni o’z ichiga oladi.

Nafosat tarbiyasi. Nafosat tarbiyasi san’atdagi, tabiatdagi, qurshab olgan hayot voqeligidagi go’zallik vositalari asosida atrbiyalash, fahmlash, go’zalikka rioya qilishga odatlantirishdan iborat.

Nafosat tarbiya davomida bola hayotidagi go’zallikni tushunadi, go’zallikni muhofaza qilishga, o’zi ham go’zallik yaratishga intiladi.

Yuqorida keltirilgan tarbiya bosqichlari bola kamolotida juda muhimdir.

¹ R.Yodgorov, N.G’aybullayev, R.Mamatqulova “Pedagogika”. Toshkent -2000.

II Bob. BOLANI IJTIMOYILASHUV JARAYONI VA ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni. Ijtimoiylashuv jarayoni, insoning shaxs sifatida kamol topishi jamiyatda mavjud bo'lgan qonun qoidalar va tartiblar asosida tarbiya topuvchi individni tushunamiz. Bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida tarbiya asosiy o'rinda turadi. Tarbiya "pedagogika" ya'ni "bola tarbiyachisi fani" degan ma'noni anglatib, kishiga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarni har bir shaxsni hamma yosh bosqichlarda uyg'un rivojlantirish borasidagi soha hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni tug'ilishdan to o'limgacha davom etadigan uzluksiz jarayondir.

2.1. Bolaning ijtimoiy – ma'naviy shakllanishida oilaning o'rni

Dunyo tarqqiyoti insonlar tomonidan kashf etilgan yangiliklar bilan ta'minlanadi. Shu kashfiyotlarning eng buyugi- bu oila bo'lsa ajab emas. Zero oila bu qaysi millat, qaysi davlatga oid bo'lishidan qat'iy nazar, aynan mana shi millatning mana shu davlatning xususiyatini o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda prezidentimiz I.A.Karimov "... bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor.oila bor ekan, farzand deb atalmish bebeho ne'mat bor. Farzand bor ekan odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi"¹, - degan fikrni aynan muddatidir.

Muayyan oilaning xususiyati uning milliy ruhiyatida namoyon bo'ladi, ya'ni oila, avvalo millatning ruhiyatini belgilaydi. Shu bois millatning, jamiyatning ruhiyatini, ma'naviyatini birinchi galda oila belgilashi ayni haqiqatdir. Biroq, insoniyat tarixidagi tarqqiyot bosqichlarning mazmuni, mohiyati nomlanishi qanday bo'lmasin, inson omili, unga ta'lim berish, uni tarbiyalash jamiyatning har

¹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent. Ma'naviyat 2008-yil

qanday sharoitdagi ijtimoiy buyurtmasi bo'lib qolavergan. Chunki "Barkamol shaxs-jamiyat taraqqiyotning asosidir.

"Zero hammaga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan- jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir".

Pedagogik, psixologik, fiziologik tadqiqotlardan ma'lumki, bolalar dunyoqarashining asosiy qismi ularning magtabgacha bo'lgan yoshlarda shakllanadi. Bola dunyoqarashining ma'naviy sifatlarining mazmunida estetik tasavvurlar muhim o'rin tutadi.

Shu bois oilada bola tarbiyasi jamiyatning dolzarb jismoniy pedagogic muammosi bo'lib qolmoqda, shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham oila masalasi alohida bob sifatida berilib, unda oila jamiyatining asosiy bo'g'ini ekanligini, u jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan (63 modda).

Shuningdek ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashlari majburligi 64 – moddada belgilab qo'yilgan.

Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda turli omillar turlicha ta'sir etadi. Bu omillar ichida oila eng asosiysi hisoblanadi. Chunki bolada tasavvur, dunyo qarash tushunchalarinig shakllanish jarayoni aynan oilada boshlanadi va bu davr dunyo qarash shakllanishining mazmun hamda hajm jihatidan eng salmoqli bosqichidir. Shuning uchun ham tushucha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yosh davri asosiy davr hisoblanadi.

Oilada bolalarning estetik tasavvurlarini shakllantirishning eng optimal shakli san'at turlari haqidagi ma'lumotlar badiiy estetik qonuniyatlar haqida bilimlar vositasida elementar tasavvurlarni tarkib topdirishdir. San'at turlarining tarbiyaviy ahamiyatidan oila sharoitida samarali foydalanish uchun esa ilmiy asoslangan, tajribada sinab ko'rilgan ta'limiy, tarbiyaviy, tadbirlarning mazmuni metodikasi. Pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqarish talab etiladi.

Zamon o'zgarishi bilan bog'liq ravishda barcha narsa o'zgarishi tabiiy holat hisoblanadi.

Shu zamon ichra yashayotgan insonlar ham goh zamonga moslashadilar, goho ularga zamon moslashishga urinib ko'radi.

Agar kuzatadigan bo'lsak, tabiiy ravishda, 10 yil avvalgi hayot hozirgi hayotdan ko'p jabhalarda farq qiladi. Ana shu o'zgarishlarning bugungi kun bolalarida ta'siri qanday bo'lyapdi? Bu ta'sirlar ko'proq salbiy oqibatlarga yetaklaydimi yohud ijobiy? Quyida savollarga javob topish uchun oilada avvalo sog'lom muhit hukm surishi lozim. Ya'ni seriallar haqida. Nima uchun televizor emas, aynan seriallar haqida gapirmoqchi bo'lganimni izohlab o'tay: har bir xonadon to'ridan joy olgan zangori ekran bizni yengil va turli ma'lumotlardan voqif etadigan muhim axborot vositasi yoki ertadan kechgacha chakagi o'chmaydigan tarbiyabuzar sifatida xizmat qilishi mumkin. Qay birini tanlash esa o'zimizga bog'liq.

Oxirgi payt seriallar haqida ko'p gapirilmoqda. Ochig'I, tashvishga tushib qolganimizcha bor. Be'mani seriallarni tomosha qilishga shunchalik berilib ketamizki (bu gap ko'proq ayollarga tegishli), hatto endigina tili chiqa boshlagan bolalarimizni ham safimizga kelib qo'shilganini sezmay qolamiz. Bu holat esa hali ijobiy natijasini ko'rsatgani yo'q, shaxsan men bunday bo'lishiga ishonmayman ham. Hayotiy misol keltiray. Yaqin bir do'stim akasi bilan bo'g'liq voqeani gapirib berdi. Uning aytishicha hali maktabga bormaydigan qizini erkalatib, yuzlaridan o'psa qizcha esa: "Dada bir serialda shunday qilishadi- debdi. Hammasiga seriallar aybdor,- yozgiradi do'stim- jiyanimning bari bir qarich bo'yi bilan serial ko'radi, mana oqibati. Yoshim o'ttizga yaqinlashdi, bola-chaqam bor, lekin televizorda yigit qizning qo'lini ushlasa, uydagilardan xijolat bo'lib boshqa kanalga olaman yoki o'rnimdan turib chiqib ketaman. Hozirgi bolalar esa oxirigacha ko'rib o'tiradi." deydi do'stim.

Bu o'rinda aybni asosan ayollarimiz bo'yniga yuklamoqchiman. Ular farzandlarini ko'zdan qochirishni istamay, ko'pincha tuturuqsiz sevgi mojarolaridan iborat serialni tomosha qiladi. Shu tariqa hali voyaga yetmagan bolaning ongi bilimlarga emas, sevgi qissalarida olib kelishi hech gap emas. Meni tashvishga soladigan yana bir jihat seriallarning yot madaniyat targ; ibotchisi bo'lishi mumkinligidir. Turk kino ijodkorlarining "Daniyalik kelin" filimida shunday epizodlar: kichkinagina qizaloq ovqatdan oldin qo'llarini juftlagan ko'yi nasroniycha duo o'qiy boshlaydi. Undan nima qilayotganini so'rasha falonchi serialda shunday qilishadi-ku: - deb javob berdi. Unutmang, bola ko'rgan narsasini tahlil qilib o'tirmay, shundayligicha qabul qilaveradi, serial qahramoniga o'zshagisi keladi. Siz bilan birga ekranga mixlanib o'tirgan farzandingiz Xuan Antonimi, hind "ilohiysi" Rammi, Nazarmi yoki Rajivga aylanmasidan televizorni o'chirib, unga ezgulikdan hikoya qiluvchi kitoblar o'qib bering.

Multfilmni yoki...

Bir kuni jiyanlarimga qo'shilib multfilm tomosha qildim. Tomosha qildim-u hayratdan yoqa ushladim, bunaqa multfilimlarni kim tanlab namoyishga tavsiya qiladi?

Bir mahal qahramonlar ya'ni yigit va qiz... Tavba, biz bolaligimizda quyunchalar, ayiqchalar, kapalaklar haqida do'stlik, kattalarni hurmat qilish haqida multfilmlar ko'rardik, hozirgilar esa...

Shu o'rinda bolalarimizga atalgan milliy multfilm va badiiy filmlarning nihoyatda tanqisligini alohida ta'kidlashni istar edim. "Zumrad va Qimmat" yoki "Tilsimoy"ni bir yilda necha marta ko'rsatish mumkin?

Bola rivojlanishi

(Xelen Vulle)

Bolani parvarish qilish uchun har bir kursni o'tish jarayonida bolani rivojlanishi haqidagi qonuniyatlarni bilish zarur. Bu bolalar bilan ishlaydigan har bir ijtimoiy ishchi asosiy talablardan biridir. Davlat va nodavlat tashkilotining

mutaxassisliklarni o'qitish jarayonida mazkur nazariy bilimlardan mutaxassislarning xabardor ekanligi aniqlanmagan.

Bolalarni rivojlanish bo'yicha muhokama bolalarni alohida ehtiyojlari bilan bog'liq muammosidagi va rivojlanishdagi o'qish va ularning sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bunday muhokamalar bolalarni institutsionalizatsiyasi va yaqin insonlarini yo'qotish e'tiborsiz, shavqatsiz munosabatga olib kelishi mumkin¹.

Bolani rivojlanishi haqidagi mashq.

Guruh va guruhchalarga berilgan murakkab keyslardan foydalangan holda ishtirokchilarga ularni haqiqiy yoshini bergan holda va uni inobatga olib, quyidagi toifalar bo'yich ko'rib chiqamiz:

Ijtimoiy,

Jismoniy,

Aqliy,

Kognitiv,

Emotsional,

Ma'naviy.

Bu bizga 8 yashar ko'cha 18 yasharli yosh davriga xos bo'lgan bola dunyoni tushunish imkoniyatiga ega, biroq uning jismoniy yoki emosional rivojlanishi 3-4 yashar bolaniki ekanligini ko'rish imkoniyatini beradi. Bu ijtimoiy ishchiga bolani yaxlit ko'rish va bolani hissiy bog'langanlik va uning hayotidagi ahamiyati. "Hissiy bog'langanlik - bu masofadan va vaqtdan qat'iy nazar, ikki inson o'rtasidagi iliq munosabat".

Hissiy bog'langanlik bizga tug'ilgan zaxotiy oq, shuningdek ilk yoshlik davrda beriladi va kata bo'lganimizcha ta'sir etadi. Agar bolalar tug'ilgan otalarni ularning ishonchlarini oqlamasa, siz uni majbur sifatida qabul qiling, bunda

¹ Kazarinova N.V. Filatova O.G. Xrenov Y. "Sotsiologiya" NOTA BENE Moskva -2000 y.

siz kata muammoni ko'rmasangiz u holda siz boshqa odamlarga pand berib qo'yishingiz mumkin.

Xissiy bog'langanlik bolani kelgusidagi o'sishi uchun samarali asos bo'ladi:

-Intelektual-bolani yangi narsani o'rgatishga va izlanishga o'ziga ishonadi.

-Emotsional (ruhiy) men buni o'zimda his etganman, agar ota onamni tashlab ketsam, ular kelishida va men bilan birga bo'lishadi. Ular menga vaqt ajratadilar, mehr-muhabbatlarini namoyon etadilar, men haqimda qayg'uradilar va barcha ishlarim bilan: men nima qilyapman, nima haqida gapiriyapman, qiziqadilar.

-Jismoniy-ovqat, issiqlik, kiyim, qon barcha mening ehtiyojlarim. Jismoniy xavotirsizlik va ota-onalar tomonidan ishonchlilik, ya'ni doimiy jismoniy ehtoyojni ta'minlaydi.

Yosh bolalar onasini visual o'rganganiga qadar hidiga va ovozigga e'tibor qaratadi.

-Ijtimoiy-oilada, o'z uyida nimalar o'rgangani jamiyatdagi xulqi va boshqalar bilan munosabatini aniqlatadi. Bolalar har kuni o'z oilasida nimani ko'rsa kuzatadi, taqlid qiladi va tahlil etadi. Jamoada o'zini qanday tutish-ijtimoiy me'yorlar-oilada shakllanadi. Shunday ekan, bola boshlang'ich bilimlarni oilada egallaydi, keyinchalik bola bog'chada, maktabda do'stlari va boshqa oilalar bilan muloqat qilganda bilimlar rivojlanadi.

Hissiy bog'langanlik darajasi qanday belgilar orqali aniqlanadi.

Tug'ilganda 1 yoshgacha

Bola... Bezovtalikni namoyon etadi?

Insonlarga e'tibor qaratadi?

Insonlarning yuziga bo'lgan qiziqishini namoyon etadi?

Qarashlarini kuzatadi?

Kutilayotgan motor rivojlanishini namoyon etadi?

Jismoniy mahkam aloqadan xursanbo'ladi?

Qulaysizlikdan belgi beradi?
Tez tinchlantirish mumkin?
Me'yordagi vah haddan ziyod qoniqmaslikni namoyon etadi?
Muloqatchang yoki faolsiz va kam gap ko'rinadi?
Yaxshi muskul fonuslariga ega?
Ota-ona... Go'dakning tovushiga e'tibor qaratish?
Bola haqida gapirayotganda yoku u bilan
gaplashganda ovozini o'zgartiradi?
Bola bilan yuzma-yuzama aloqani qo'llash?
Bolaning shaxsiy rivojlanishiga, bo'lgan qiziqishiga
e'tibor qaratish?
Rivojlanishniuning yoshiga mos kelishi?
Bolaning replikaga ta'sirlanishi?
Bolani tinchlantirish va ovutish qobiliyatini
namoyon etish?
Bola bilan jismoniy aloqadan xursand bo'ladi?
Bola bilan ijobiy o'zaro munosabatda tashabbus
ko'rsatish?
Bolaning ijobiy sifatlarini mansublashtiradi?
Hissiy bog'langanlik darajasi qanday belgilar bilan aniqlanadi?

Bir yoshdan besh yoshgacha

O'z atrof muhitini kuzatadi?
Ota-onasidan ijobiy ta'sirlanadi?
Hamisha biror narsa bilan band?
O'zaro hamkorlik belgilarini namoyon qiladi?
Muloqot vaqtida insonlarga qaraydi?
Rohatlanish va og'riqqa ta'sirlanadi?
Yoshiga mos faoliyat bilan shug'ullanadi?

Nutqni to'g'ri ifodalaydi?

Ota-ona tomonidan qo'yilgan tartibga e'tibor qaratadi?

Me'yordagi qo'rquvni namoyish etadi?

Jismoniy aloqalarga ijobiy ta'sirlanadi?

Ajralishga bo'lgan munosabatni namoyish etadi?

Ota-onasining qaytganligini his etadi?

Empatiya belgilarini namoyon etadi?

Uyat va aybdorlik hissini namoyon etadi?

Ota-ona...

Bolaning yoshiga mos tartib-intizomini qollaydi?

Bolaning tashabbusiga e'tibor qaratadi?

Bolada yoqimlilik hisini paydo etadi?

Yetarli darajada ovutishni amalga oshiradi?

Bolani ijobiy yo'nalgan va g'amxo'r oila

a'zosi sifatida ko'radi va tushunadi?

Bolaning reblikasini tashkil etadi?

Bola bilan o'zaro faoliyatida va o'zaro

muloqatda qonitishni his etadi?

Bola tomonidan yoqimlilikni his etadi?

Bolaning yoshiga bo'lgan chegaralarini belgilaydi?

Bola qo'qqanda uni qo'llab quvatlaydi?

Ilk maktab yillari

Bola... O'ziga-o'zi yoqib ketayotgan o'zini tutadi?

O'z yutuqlaridan faxrlanishni namoyon etadi?

Ozgarlar bilan boxam ko'radi?

Kattalar tomonidan belgilangan talablarni qabul qiladi?

O'ziga yoqqan yoki yoqmagan narsalarni namoyon etadi?

Yangi vazifalarni bajarib ko'rishga urinig ko'radi?

O'z xatosini tan oladi?

Keng doirada hissiyotlarni namoyon etadi?
Ko'rish aloqalarni o'rnatadi?
O'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchini namoyish etadi?
Anglaganlikni, rivojlanganlikni namoyish etadi?
Yengil kuladi?
Kattalar bilan muloqatda o'zida xavotirlikni his etadi?
Ota-onalar bilan jismoniy kontakt ijobiy e'tibor?
Tengqurlari aka-uka va opa-singillariga
ijobiy munosabatga ega?
Ota-ona...
Bolaning maktabdagi o'z qarashiga bo'lgan
qiziqishini namoyon etadi?
Salbiy his tuyg'ularga e'tibor qaratadi?
O'z tengqurlari bilan munosabatda bo'lish
imkonini beradi?
Aka-uka va opa-singillari bilan muammolarni
adolatli hal etadi?
Yoqimlilikni paydo bo'lishga tashabbus kursatadi?
Yosh davriga xos tartib intizomni joriy etadi?
Bolaning yosh davriga mos vazifani yuklaydi?
Bola bilan birkalikda xursand bo'ladi?
Bolaga nima yoqadi, nima yoqmaydi biladi?
Bolaga uning xulqiga nimani maqullaydi
yoki nimani maqullashi haqida to'liq
tushuncha beradi?
Yaxshi xulqni yomon xulqni belgilaydi?
O'smirlik...
O'zining kuchi tomoni haqida biladimi?

O'zining kuchsiz tomoni haqida biladimi?
O'z zehnligidan qoniqadimi?
O'z tengqurlaridan ijobiy munosabatda?
Maktabda o'zlashtirishi yaxshi, anglaganlikni
rivojlantirish belgilarini namoyon bo'lishi?
Qonun bilan bog'liq jiddiy muammolarga ega emasligi?
Ota-onasi qadrli inson ekanligini his etadi?
Faoliyat bilan etarli darajada shug'ullanadi?
Istiqbolni belgilash uchun maqsad qo'yish?
Ota-onasi bilan emotsional yaqinlik?
Zarur chegaralarni belgilaydi?

Ota-ona...

Nazoratni kuchaytiradi?
O'smirga ishonadi?
O'smirning do'stlarini qabul qiladi va ularga
o'z e'tiborini qaratadi?
O'smir faoliyati bilan qiziqadi?
O'smirning maktabdagi faollarni o'zlashtirishi bilan qiziqadi?
O'smirning uydagi kundalik faoliyatini
bajarish uchun samarali natijani kutadi?
Qiyin vaziyatlarda o'smirni himoya qiladi?
"Bu boladan naf bor" deb o'ylaydi?¹

¹ A.Child's Journey Through Placement, V. Fahlbug.

Hissiy bog'langanlikning yetishmasligi oqibati

1950-yillarda britaniyalik yozuvchi va bolalar shaxsi shakllanish muammosini o'rganish bo'yicha tatqiqotchi Jon Boubli hissiy bog'langanlikdan maxrum bolalar o'zgalari bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga duch kelgan ota-onalar bunday bolalarni vijdotsiz. Yengil manipulyatsiya qilish mumkin bo'ladigan yoki his tuyg'ularini samimiy ifodalay olmaydi deb hisoblaydilar. Ota-onalar shunday deyishlari mumkin. "Biz u uchun nimalar qilmaylik hech qanday natija bo'lmayapti"¹.

Bunday bolalar munosabatning turli ko'rinishlariga qo'llab-quvvatlashni va amalga oshirishlari murakkab hisoblanadi. Ular o'zgalari uchun qayg'urishga erinmaydi. Ular mehr muhabbatga ham erishganliklari uchun uni o'zgalarga bera olmaydilar. Ular bolalarcha-egosentrik, impulsiv yashashni davom ettiradilar. Ularda qonun va qoidalarni bajarishga muammolar tug'iladi. Ularni qiziqtiradigan birinchi narsa - "bundan menga nima foyda?" ular shunchalik darajada boshqalarga ishonmaydiki, bunday bolalarning xulqi o'zgalari bilan masofani saqlashga qaratilgan. Ilk hissiy bog'langanlikni yetishmasligi natijasida xulq-atvorning quyidagi ko'rinishi mavjud.

Tortinchoqlik

Hissiy bog'langanlikda muammosini mavjud bo'lgan ko'pchilik bolalar o'zgalari bilan muloqatdan o'zlarini tortadilar. Bu chetlatishlik turli shakllarda ko'rinadi. Ba'zi bolalar so'zning jismoniy mazmunidan chetlatadi va o'zgalarga nisbatan o'z atrofida himoya maydonini paydo etadi. Tortinchoqlik yana bir ko'rinishi qo'rqishni namoyon bo'lishiga o'xshaydi. Ota-ona bolaga yaqinlashadi, u o'zini olib qochadi. Agar ota-ona bolani bag'riga bossa, u hayron bo'ladi.

¹ London, 1988. Vera Falberg.

Kattalar boladan yuz o'girgandek qo'rqitishni xoxlamaydi va bola qo'rquvni namoyish etganligi uchun kattalar bilan masofada bo'lganligini anglatadi . Oila a'zolari ko'pchilik holatlarda bola ularni yoqtirmayapti degan xulosaga keladi.

Surunkali xavotirlik

Bolalarga zarur vaqtda ota-onalar doimiy ravishda yonida ekanligiga ishonch hosil qilsalar, surunkali xavotirlikni his etmaydilar. Bola uchun ota-ona zarurligida ularni ularni yo'qligi eng dahshatli vaziyat hisoblanadi. Bolani tayyorgarliksiz boshqa yerga olib kelganda yoki hayotida zudlik bilan o'zgarish sodir bo'lganda xavotirlik kuchliroq namoyon bo'ladi. Surunkali xavotirlikni boshidan kechirayotgan bolalarda ota – onaga “yopishish” xolati kuzatiladi. O'z instinktini namoyon etadi. Bolaning bunday xulqi oila a'zolarining psixik toliqtiradi.

Qarashlardagi salbiy bog'liqlik

Biz bilamizki, bola va ota-ona o'rtasidagi qarashlardagi bog'liqlik qanchalik ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek ajablanarli emas, bu muammoga duch kelgan ko'pchilik bolalar boshqa insonlar bilan aloqada qiyinchilika duch keladi.

Ko'pchilik hayratlanadi, nima sababdan bu kimnidir ko'rishni xoxlaydi. Qarashlardagi bog'liqlik yaxshi rivojlangan bolalar, atrofda sodir bo'layotgan voqealarga to'g'ri qarashdan qochib, yon tomondan nazorat etadilar. Bunday bolalarning ba'zilar qachonki ularda chaqiruv kelganda aloqaga kirishadilar, shuning uchun ba'zan ularning ota-onalari ularning qarashidagi surbetlikka o'rganib qolishadi.

Tajovuz xulq

Ba'zi bolalar tajavuz xulqi orqali kattalar e'tiborlarini o'zlariga qratadilar. Agar bolaga har bir yaqinlashganda ursa, tepsa, yumdalana yoki tishlasa, kattalar ularni masofa saqlashni talab etadi. Agar bolada biror bir narsani talab etishda jahli chiqsa, ko'plab ota-onalarda talablarni (to'xtashi) bildirishni to'xtatish oson

bo'ladi. Haddan ziyod faol xulq-atvor kattalar tomonidan masofada saqlashni talab etadi, doimiy harakatdagi bola yaiqin bo'lishi qiyin.

Baxssiz hissiy bog'langanlik

Sog'lom bola notanish inson bilan ham muloqatga kirisha olishi mumkin, suhbat kamdan-kam jinsiy yaqinlikka olib kelishi mumkin Boshqa tomondan bola notanish kishi uning oldiga kelib "men seni yaxshi ko'raman" deb, borishi mumkin. Bunday bola tezlik bilan tizzasiga chiqib olib, uni quchoqlab o'pishni boshlaydi. Bunday xulq o'ziga rom etuvchi xarakterga ega. Agar bola o'zini ko'pchilik bilan yoki hamma kattalar bilan shunday tutsa va desa: "o'zgalar men uchun ahamiyatliroq" hissiy bog'liqlik tomiyilining mohiyati shundaki, bir qancha insonlar boshqalardan muhim, ajratib bo'lmaydigan bog'liq muammosining belgisini bildiradi. Har qanday insonlar bilan yaqin munosabatga kirishadigan bola bilan ota-onalar yaqinlikni his etishlari murakkabroq. Begona insonlar bilan ketib qolishi mumkin bo'lgan bolalarga qarash biroz qiyinroq.

Haddan ziyod kompetent bola

Bazi bir hissiy bog'langanlik munosabatdagi muammosi mavjud bo'lgan bolalar haddan tashqari mustaqillik haqidagi taasurotini uyg'otadi. Ota-onalar ular uchun umuman kerak emas.

Ilk yoshda ular mustaqil o'rnidan turish, cho'milish, kiyinish va eslatmasa ham o'z xonasida bo'lishni talab etadi. Ota-onalarga bunday bolalarga kerakligini his etish murakkab.

O'zini his etishning yetarli emasligi

Bolalikda qiyinchilikni boshidan kechirgan ba'zi bolalar atrofida nima bo'layotganini tushunadi, lekin shaxsiy tanasini his etmaydi. Ular ko'ngli ayniguncha yeyishi mumkin. Ular og'riqni yoki temperaturaga o'zgarishga ahamiyat bermaydi. Ular enurez bilan kasal bo'ladi. Ular hecha qachon o'z tanasining belgilariga va qulay holatga erishishga harakat qilmaydilar. Ilk

bolalikdagi ehtiyojlariga ota-onalarning e'tibor qaratmaydiganligi natijani bunday xulqni rivojlanishiga sabab bo'ladi¹.

Nazorat bilan bog'liq muammo

Biz bilamizki, bola va ota-ona o'rtasidagi qarashlardagi bog'liqlik qanchalik ahamiyatga ega ekanligini shuningdek ajablanarli emasm, bu muammoga duch kelgan ko'pchilik bolalar boshqa insonlar bilan aloqada qiyinchilikka duch keladi. Ko'pchilik hayratlanadi. Hissiy bog'langanlik yetishmasligi boshidan kechirayotgan bolada o'zgalarda nisbatan ishonchsizlik, hokimiyat uchun kurash, bolalikda qiyinchilikni boshidan kechirgan bolalarning oilasini kuzatish, nazorat bilan bog'liq muammoga olib keladi. Bunday bolalar xulqning aniq chegaralangan me'yorni murakkablik bilan qabul qiladi. Shunday tasavvurlar hosil bo'ladi, bunday chegarani bosib o'tishga harakat qiladi. Ota-on tomonidan aqlli tanbex berish janjalga olib keladi.

Shunday tasavvur bo'ladiki, bunday bolalar o'z hayotlarini o'zlari nazorat qiladilar, haqiqatda ular o'z hayotlariga o'zlarini xo'jayin deb bilmaydilar. Nazorat bilan bog'liq bo'lgan savollar patronat ota-onalar bolalar orasidagi kelishmovchilikka olib keluvchi asosiy sabab bo'lishi mumkin.

“2 yoki 20” sindrom

Hissiy bog'langanlik muammosi bilan bog'liq bo'lgan bolalar ya'ni bazi holatlarda o'z yoshiga nisbatan kattaroq yoki boshqalarga nisbatan yetukroq ko'rinadi. Ularning yoshiga mos keladigan xulq ularni qoniqtirmaydigandek ko'rinadi. Bunday bolalar kattalar yoki o'smirlar uchun xarakterli mashg'ulotga yoki ish vazifasiga berilishi bilanoq harakat qiladilar. Ular o'z tengqurlari bilan o'ynayotganda liderlikka intiladilar. Ularni bostirishga qarshilik ko'rsatadi. Ba'zi munosabatlarda ular yigirma yoshdek o'zlarini tutadilar. Kimdir ularni xulqini

¹ U.Karimova “Psixologiya”. A.Qodiriy nomidagi nashryot. “Toshkent” 2002-yil.

chegarasa omadsizlikni boshidan kechirsa, ularda jahldorlik namoyon bo'ladi, xuddi ikki yoshli bolalardek.

Axloqiy rivojlanishdan orqada qolgan bola

Vijdon rivojlanishdan kechikkan bola yolg'on gapiradi va o'g'irlaydi. Ular mutloqo ahamiyatsiz narsalardan yolg'on gapiradi. Ulardagi yolg'on gapirishni aniqlasj murakkab. O'g'irlikni "maktabdan topilgan narsa" ko'rinishida qabul qilish mumkin. Uydan pul yoki buyumni olishi mumkin. Odatda ular o'g'irlikda qo'lga olmasalar ajablanmaydilar.

Bolaning rivojlanishdagi ehtiyojlarini baholash parametrlari

Sog'liq

O'z ichiga o'sish va rivojlanish jismoniy va aqliy axvolini oladi. Nasliy yoki turli xil boshqa tramoaga soluvchi omillarni ham inobatga olish zarur. Bola kasal bo'lib qolgan bo'lsa zarur tibbiy muolajalarni olishi, mos va to'laqonli ovqatlanish tartibi, jismoniy talablar, zaruriyatda va yosh davrlarida oladigan vaksinalar rivojlanishi mobaynida tibbiy ko'rikdan o'tib turishi, okulist va dentist ko'rigida bo'lib turishini baholashni o'z ichiga oladi. Yoshi kattaroq bo'lgan bolalarga sog'lig'iga ta'sir etuvchi omillar haqida suhabat uyshtirish orqali maslahatlar va zarur ma'lumotlarni berish, shuningdek jinsiy rivojlanish, jinsiy madaniyat va ma'lumot, turli xil zararali vositalardan foydalanishning zararlari haqida to'xtalib o'tish zarur.

Ma'lumot

Bolasining tug'ilganidan boshlab, aqliy rivojlanishi bilan bog'liq barcha sohalarni o'z ichiga oladi. Boshqa bolalar bilan o'ynash va muloqotga kirishish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarning mavjudligini ham inobatga oladi, bunda kitoblardan foydalana olish imkoniyati, boshqa yoshga xos bo'lgan egallanishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarning egallanganligi, yutuq yoki erishilgan natijalar bilan bog'liq his-tuyg'ularni keltira olishi, shuningdek o'z tarkibiga kattalarning bolaning ta'limiy faoliyati, uning tarqqiyoti va erishgan yutuqlariga

nisbatan qiziqishlarini ham oladi. Oilada shunday kishi bo'lish kerakki, toki u bolaning hozirgi rivojlanishi bosqichlardan kelib chiqqan holda, uning ta'lim olishi bilan bog'liq barcha ehtiyojlarning qondirilishiga e'tibor qarata olsin.

Hissiyatlarning rivojlanishi va xulqning rivojlanishi

His-tuygular hamda xatti-xarakterlar orqali bolaning namoyon etadigan munosabti nazarda tutiladi. Dastlab, kattalarning yoki ota-onaning, yaqin insonlarning ishtirokidagi holati, keyin esa bola kata bo'lib borgan sari notanish kishilarning oldiga o'zina tuta olishi. O'z ichiga ilk bog'langanlikning tabiati va vazifalarni, temperamentining alohida tavsilotlarini, turli xil o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish omkoniyatini etussga nisbatan javob reaksiyasi va o'zini nazorat qila olish darajasini oladi.

Individuallik

Bolada shakllanayotgan shaxsiy individuallikka xos bo'lgan va alohida bir butun hamda qadri insonligini his qila olishini o'rganadi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: bolaning o'ziga va qobiliyatlariga nisbattan munosabatini, o'z obrazini qanday tasavvur qilishi va o'zini qanday baholashi, o'ziga nisbatan ijobiy bahoni mavjudligi. Bunga shuningdek, irqiy, diniy mansubligini, jinsi va seksualligi, yoshi, chegaralangan imkoniyatlarni ham kiritish mumkin. Oilaga mansublik hissi, oila, tengdoshlari guruhi va jamiyat tomonidan qabul qilinishi (madaniy mansublik ham) bilan bog'liq his tuyg'ular.

Oila va ijtimoiy o'zaro munosabatdir

Empatiyaning (hayrixonlik, hamdartlik) hamda boshqa insonning o'rniga qo'ya olish imkoniyatining rivojlanishi. Ota-onalar yoki ular o'rnini bosuvchi kishilar, aka-ukalar, opa-singillar, yaqin qarindoshlar, qo'ni qo'shnilar bilan muqim va hissiy iliq shaxslararo munosabatlarning yo'lga qo'yilganligi, tengdoshlar hamda bola uchun qadri bo'lgan boshqa insonlar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishning ahamiyatini, shuningdek o'sha insonlarning bolaga nisbatan munosabatini ham inobatga olish.

Ijtimoiy o'zini namoyon qila olish

O'z ichiga tashqi ko'rinish, xul yoki kamchiliklar tashqi tomondan qanday qabul qilayotganligi inobatga olinadi hamda u haqidagi tasavvurlar qay tarzda hosil bo'layotganligiga ham e'tibor qaratiladi.

O'z ichiga kiyimining Yoshi, jinsi, dini, itiqodiga mosligi, ozodlik va shaxsiy gigiena, kattalar yoki ota-onalar (bular o'rnini bosuvchi kishilar) maslahatiga e'tibor berish yoki bermaslik.


O'ziga xizmat ko'rsata olishi ko'nikmalari

Bunda bolaning o'sib borayotgan mustaqillikka monand ravishda amaliy, ematsional va muloqatchanlik ko'nikmalarni o'zlashtira olish qobiliyati va imkoniyatiga e'tibor qaratiladi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi kiyinish, ovqatni yeya olish kabi amaliy ko'nikmalarni bajara olishi, o'zida ishonch hosil qilish imkoniyati, oiladan tashqarida, ya'ni ulardan alohida yashash davomioda amaliy ko'nikmalardan foydalana olishga nisbatan ishonch, kata bolalar uchun esa oilasidan alohida o'z hayotini qurib yashay olish imkoniyati.


Vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal qila olish imkoniyatga ham e'tibot qaratadi¹.

¹ U.Karimova "Psixologiya". A.Qodiriy nomidagi nashryot. "Toshkent" 2002-yil.

Bolalarda qo'zg'alish bo'sha shish sikli



Ijobiy o'zaro munosabat sikli



Bolalarning va ularning xulq atvorini kuzatish

Nima uchun bolalarni va ularni xulq atvorini kuzatish zarur? Kuzatish orqali nimani bilishimiz mumkin? Ularga vasiy va ota-onalarga savollar bitish orqali nimani bila olmaymiz?

Qachon siz 3 yoshdan to 10 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan oxirgi paytda suhbatlashdingiz? Bola sizga gapirayotganda unga diqqat bilan eshitdingizmi yoki o'zingiz gapirdingizmi, sizning ovozingiz yashirin holda eshitildimi, yoki siz unga oddiy savol berdingizmi?

Bolalar bilan ishlashda ijtimoiy ishchi bola nimani his etyapdi, nimani xoxlayapdi va unga nima kerakligini bilishi kerak. 6 oylik bola qanday qilib o'z his tuyg'ularini, og'riq va o'z roziligini ifodalaydi? Balkim bolalar orasidan siz tushunishingiz uchun ular bilan nima sodir bo'layotganligi haqida bilimga ega bo'lganlari bo'lishi mumkin?

II.2. SHARQ VA G'ARB OLIMLARI QARASHLARIDA BOLA TARBIYASI TO'G'RISIDA FIKRLAR

Uzoq asrlardan buyun tarbiya va bola tarbiyasi muammosi butun yer yuzida jumladan O'rta Osiyo va G'arbda keng tadbiq qilinib, o'rganilib kelinmoqda.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l atfori shakllantirishga qanday omillar ta'sir etadi? Bola tarbiyasiga uning shakllanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi. Bu muammo pedagogikada azaldan munozaraga sabab bo'lib kelayotgan masala hisoblanadi.

Ko'p asrlik shu munozara zaminida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtai – nazar vujudga keldi. Ulardan bir toifasi odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy-biologik omillar, hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha bola ona qorindalik vaqtida avlod ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlarigina rivojlanadi. Bu nuqtai nazar tarafdorlari tarbiyaning rolini cheklab qo'ydilar. Bu nuqtai nazar fanda biologik yo'nalish deb nomlanadi. Ularning vakillari Aristotel, Platonlarning fikricha, taqdir, tole kimning hayotidagi o'rnini mavqeini avvaldan belgilab bergan¹.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyondalarining fikricha, odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi; rivojlanish ana shu xususiyatlarining miqdoriy ko'payib borishidan iboratdir. Preformistlar ham naslning shaxs rivojlanishdagi rolini favqulotda yuksak baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini mutlaqo inkor etadilar. Bu nazariyaning bir yo'nalishi XX asrda keng tarqalgan bixeviorizm oqimi bo'ldi.

¹ U.Karimova "Psixologiya". A.Qodiriy nomidagi nashryot. "Toshkent" 2002-yil.

Bixeviorizm oqimiga amerikalir pedagog va psixilog E.Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan, ong va aqliy qobiliyati ham nasldan-naslga o'tadi. Bu bilan Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi, uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan ojiz deb biladi.

Xuddi shunday nuqtai nazarni yana bir amerikalik proumatik pedagog D.Dyui va A.Kombaslar yoqlab chiqadilar. Ular tarbiyaning shaxsga bo'ladigan faol ta'sirini inkor etib, xivojlanishini faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb ko'rsatadilar. Odam qanday sifatlar bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida bilim olish, ko'nikma va malaka hosil qilishi natijasida xuddi ana shu sifat va xususiyatlar rivojlanib boradi, degan fikrni ilgari suradilar. Ammo psixologiya va pedagogika inson tarbiyasi, kamolotiga oid ilmiy ma'lumotlar odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishiga, kamolotga yetishiga imkon beradi. Uning shaxs bo'lib kamol yetishida nasl (biologik omil) ijtimoiy muhit hamda maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan tarbiya alohida rol o'ynaydi. Bu ilmiy ma'lumotlar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb qarashga imkon yaratadi. Shunga ko'ra unga tabiiy kuch va imkoniyatlar bor, ular shaxsning rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, deb ta'kidlanadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali ibn Sinilar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar. Farobiy inson kamolotida ta'lim –tarbiyaning muhimligini ta'kidlab, "Munosib inson" bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi; tarbiya esa bilimlar bilan

muloqatda axloqiy qadr - qiymatini va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..."¹ deydi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy- pedagogic asosda yoritib berishga harakat qilgan el, ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib, "Bola tug'lgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi.

Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarning birortasini ham inkor etmagan holda ularni alohida-alohida ko'rib chiqaylik.

Shaxs rivojlanishida ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Ular bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terisining rangi, bo'yi basti va b.) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra bola bir qator tug'ma xususiyat va instinklarga ega holda tug'iladi va bular shartsiz reflikslar guruhini tashkil etadi. Bular orasida oshqozon refleksi (so'lak ajratish), muhofaza refleksi (issiqdan qo'lni tortish, yorug'dan ko'zni qisish) kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo bu xususiyatlar insonga ham, hayvonga ham taalluqlidir. Ayni vaqtda insonlarga xos bo'lgan xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan o'tadi. Masalan, tananing vertical holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish

¹ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. "Toshkent" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti. 1993 yil.

qobiliyati bular tug'ma imkoniyatlar bo'lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi darkor. Bu ruhiy imkoniyatning chindan ham rivojlanmog'i ro'yobga chiqmog'i uchun bola faqat o'sibgina qolmay, balki shu o'sish jarayonida insonlar orasida yashamog'i, ulg'aymog'i va ijtimoiy hayotga ishtirok etmog'i kerak. Chunki inson biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi va kamolga yetadi. Bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida mehnat qilishi uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana ushanda bolaning nimaga qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. Fiziologiya va psixologiya fanining ko'rsatilishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u "mudroq" holatda bo'lib, uning uyg'onishi-rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Agar bola o'z qobiliyatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aks holda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogik layoqatning namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to'la-to'kis hayot sharoitida tarbiyaga bog'liq.

Tarbiyaning yana bir agenti maktab. Maktab ta'limi rasmiy jarayon. Chunki o'rganiladigan predmetlarning majmui maxsus qayd etib qo'yiladi. Biroq maktablar tarbiya agentlari sifatida biroz boshqacharoq yo'nalishda ham ta'sir o'tkazadilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy mehnat va estetik tarbiya majmuidan iboratdir.

Bu sohada O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ilg'or fakrlari biz uchun juda qimmatlidir.

Abu Nasr Farobiy o'zining "Baxtga erishish to'g'risida" nomli asarida ilmga ta'lim orqali, yaxshi fazilatga esa tarbiya orqali erishiladi deydi.

Abu Ali ibn Sino bolaning kelajagi haqida u tug'ilmasdan boshlab unga rostgo'ylik, javobgarlik, mehribonlik kabi fazilatlarini, yaxshilik, insoniylik hissini singdirish zarurligini aytadi.

Qayerda, qaysi jamiyatda, qaysi davrda yaxshi xulq qaror topsa, o'sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch odamlari piri badavlat bo'ladi.

Shuning uchun mamlakatimiz mustaqillikka erishgan va o'z istiqbolini tiklayotgan bir vaqtda jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan biz yashab turgan jamiyatning axloq dajasiga bog'liq. Bundan kelib chiqib dono xalqimizning mutafakkirlarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo'llab kelingan eng xalqchil odob namunalarini o'rganib borishimiz zarur¹.

Bundan besh yuz ellik yil avval yashab ijod qilgan buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani mehri anbar yuzni yoritadigan va a'loga baxt – quvonch keltiradigan nur' – deb hisoblagan edi. Navoiy bolalar oilada va maktabda intizomli bo'lishlari va o'zlarining odobli ekanliklarini ham ta'kidlab o'tgan edi.

Navoiy tarbiya usuli sifatida namuna ko'rsatishga alohida e'tibor bersa va kishilarni ayniqsa yoshlarni yaxshi kishilardan namuna olishiga, ulardan ibrat olishga, ukarni davrasida bo'lishga, ular bilan tez-tez suhbatlashishga chaqirar edi.

U bola tarbiyasida ota-onalarning ibrati to'g'risida shunday yozadi.

Farzand ato qillug'un chu odat qilg'ay.

Ne odat ila kasbi saodat qilg'ay.

Har kimki atag'a ko'p rivboyat qilg'ay

¹ M.Husaniy tarjimasi. "Odob bo'stoni va axloq gulistoni". "Toshkent" Fan- 1994 yil.

O'g'lidan anga bu ish siyosat qilg'ay.

Bu allomalarning fikriga tayangan holda bolalarimiz tarbiyasiya u tug'ilganidan boshlab e'tibor berishimiz lozim. Bu esa hozirgi kunda olib borilayotgan islohatlar bilan bog'liqdir. Ayniqsa ta'lim sohasidagi islohatlar yoshlarimizning kamol topishiga asos bo'lmoqda.

1997 –yil 29- avgustda “Ta'lim to'g'risidagi qonun” ning qabul qilinishi ta'lim jarayonini o'zgartirib yubordi.


Bu dasturlarni hayotga tatbiq qilish 3 bosqich asosida amalga oshiriladi.

1-o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda ya'ni 4 yil davomida joriy etiladi.


2- o'tish davri 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishda erishish darboz.

3- o'tish davri 2005 va keying yillarda mo'ljallangan bo'lib, unda to'plagan tajribalarni tahlil etish.

3-rasm



4-rasm



Mana shunda o'xshash islohatlar yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini O'zbekistonda samarali ravishda olib borilayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur qonunlar ijrosi bo'yicha joylarda ham juda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan maktablarda qilinayotgan ishlar bularga yaqqol misol bo'la oladi¹.

¹ Y.Hasanboyev ,N Saribayeva, G.Niyozov "Pedagogika" O'quv qo'llanma. Toshkent "Fan" 2006-yil.

II.3. BOLA RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA MUHITNING ROLI

-Bola xulq-atvori va o'zgaralar bilan o'zaro munosabatini kuzatish xoxishga ko'ra turli sharoitda bir necha marta o'tkazish lozim. Ular bir bola turlicha joyda va turi; insonlar bilan yoki qarindoshlari bilan turlicha ta'minlanadi.

-O'zingiz uchun nimani va anima uchun kuzatishingizni hal eting. Kimdir aytdi, bola yoki uning ota-onasi o'zaro munosabati yaxshi emas, yoki sizning taxminingizcha ota-ona bolasi haqida g'amxo'rlik qilayotganini namoyish eta olmaydi. Ota-onaning bolani cho'miltirish, ovqatlantirish, o'yin va bola bilan turli vaziyatlarning o'zaro munosabati, masalan bola bilan biror-bir yerga borishini kuzatish kelgusidagi baxolash uchun zarur. Jismoniy kontakt stimilatsiya, verbalizatsiya va ematsional bog'liqlik sizning kuzatishingizda alohida ahamiyatga ega¹.

Juda kichik bolalar uchun kattalar ahamiyatli ya'ni ularga ishonadi, sizning ishtirokingizni osoyishtalik bilan qabul qiladi. Sizning ishtirokingiz va ularga hammasi yaxshi degan gaplaringiz ularni tinchlantiradi.

-Asosiy faollik zonasidan boshqa yerga o'tiring. Biror bir bo'rchakka o'tiring, biroq bola sizni doim ko'rib tursin.

- Agar savol sizga yo'naltirilmagan bo'lsa gapirmang, tinchlikni saqlang. Kuzatish boshlangunga qadar siz u yerda maslahat yoki savollarga javob bermasligingiz haqida kattalarni ogohlantirib qo'ying.

-Nima sodir bo'layotganligiga qaramasdan xalaqit bermang.

- Agar bolada xavotirli tahluka bo'lsa, kerakli choralarni qo'llash uchun kattalarni ogohlantiring.

¹ Abdulla Avloniy "Istiqloq fidoiylari "Sharq" Toshkent 1993-yil

- Barcha ma'lumotlarni xotirangizga saqlanishi uchun yozib boring. Kattalar nima qilayotganligini yozib boring.

Bolani tushunish me'yoridan kelib chiqqan holda, yoshiga mos ravishda uning xulq atvori do'stonami?

Bola xursand, qo'rquv, baxs va harakatchanlikka ta'sirlanadimi? Kim o'yin, baxs va anima qilish mumkinligini to'g'risida tashabbus ko'rsatadi? Nima qilish mumkinligini bolaning fikridan kelib chiqqan holda kattalar va bolani navbat-navbat taklif etadi? Bola kattalarni mensimaydimi yoki kattalar bolalarni mensimaydimi, xuddi u bu diqqatini o'ziga jalb etadi?

Agar bola kattalarga yoqmaydigan ishlarni qilsa, u qanday bolani chalg'itadi? Bu samara beradimi? Bola va kattalar bir-biriga bog'langanligini namoyish etadimi?

Tarbiyachiga savol berish orqaligina bola nimani his etish, etmasligini o'zini qanday boshqarishi, tengqurlari va oila a'zolari bilan o'zaro munosabati, mazkur muassasada yashovchi kattalar va bolalar bilan munosabat haqida ma'lumotlarni olish mumkinmi?

Siz bolani qanday xulq atvori va o'zaro faoliyatini kuzatishni xoxlaysiz? Qancha vaqt siz kuzatasiz? Qanday vaziyatlarda siz ishtirok etishingiz zarur? Siz bolaga jarohat yetkazish darajasigacha bo'lgan vaziyatda kattalarning xulq-atvoriga va ta'sirlanishiga xalaqit qilasizmi?

Kuzatish

Bola va boshqalar nima qilyapti, siz nima sababdan uni oldida ekanligingizni bola bilishi zarur. Kattalar, ya'ni bola uchun javobgarlar bolalarga soda tarzda tushuntirish sizni u yerda yo'q deb harakatni davom ettirish zarur.

L.Kolbergning "Odob-axloq rivojlanishi" nazariyasi

Piajening mehnatlariga asoslanib amerikalik psixolog Louners Kolberg odob-axloq rivojlanishi bosqichini axloqiy asos va aqliy rivojlanishning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib beradigan nazariyani ishlab chiqardi. Axloqiy rivojlanishga

qaratilgan tatqiqotlarda olim bolalar va o'smirlarni gipotezaga asoslangan mantiqiy, ikkilanishlar orasiga qo'ydi.

Bu maqsad bilan bolalarga ularning axloqiy normalarini inobatga olgan holda hikoya o'qilgan. Ularga mantiqiy axloqiy afzalliklarni bilish uchun savol berilgan.

Har bir so'roqqa tutilgan bola nima uchun odamning harakati to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tushuntirib berishi kerak edi. Bu bolalarning fe'l-atvoriga qarab 3 turga bo'lingan va 6 ta bosqichni o'z ichiga oladi.

2-jadval

| L.Kolbergning “Odob-axloq rivojlanishi” nazariyasi bosqichlari | |
|--|---|
| Axloq-odob rivojlanishi darajasi va bosqichi | Ma'lum tipga xos bo'lgan hatti-harakatlar misollari |
| <p>I-Daraja. Axloqiy (4 yoshdan 10 yoshgacha)</p> <p>1-bosqich. Jazolashga yo'naltirilgan</p> | <p>Bu darajada hatti-harakatlar boshqa tashqi hollarda va boshqa odamlar nuqtai nazaridan aniqlanadi va hisobga olinmaydi:</p> <p>Bu bosqichda hukm ushbu hatti-harakat ketidan rag'batlantirish va jazolashga qarab belgilanadi. Hatti-harakat qonunga asosan, jazodan qutulib qolgan holda chiqariladi.</p> |
| <p>2-bosqich. Rag'batlantirishga yo'naltirilgan</p> | <p>Hatti-harakat hukmi undan qutila olgan holda chiqariladi. Qulay axloq normalari bilan kelishilgan holda mukofot olish.</p> <p>Bolaning yaxshi hatti-harakatiga javoban yo'naltirilgan harakatga aylanadi.</p> |
| <p>II-Daraja. Konvensiya asosida (10 yoshdan 13 yoshgacha)</p> | <p>Bu rivojlanish darajasida turgan odam shartli rollarda ushlanadi, boshqa odamlarning prinsipig yo'naltiriladi.</p> |
| <p>3-bosqich. Yaxshi o'g'il (qiz</p> | <p>Hukmni boshqa odamlar ma'qullashadimi?</p> |

| | |
|---|---|
| bolaga) yo'naltirilgan namuna | Xulq atvor, o'rnatilgan norma qoidalariga muvofiq boshqa odamlar berayotgan namunalar ma'qul sanamasliklaridan saqlanishga qaratilgan. |
| 4-bosqich. Obro'ga yo'naltirilgan. | Hukm puxta o'ylangan o'rnatilgan tartibga qaratilgan, hokimiyat va qonun bilan tasdiqlangan hukmat qonuni va ijtimoiy normalarni himoya qilish, obro'li idoralar orqali o'rnatilgan va ular tomonidan hukm chiqarishlarini oldini olish va ularning oldida bajarilmagan majburiyatlardan ayb hissining paydo bo'lishi. |
| 3-Daraja. Postkonvensional. Bolaning o'z-o'ziga isjnuvchnlik vaqti. (13 yoshdan boshlab) | Aynan shu darajada inson o'zining mezonidan kelib chiqib hatti-harakatlari haqida o'ylaydi. Aql idrokning eng yuqori darajasi ushbu darajada belgilanadi. |
| 5-bosqich. Ijtimoiy kelishuvga yo'naltirilgan | Hatti harakatlar demokratik tarzda qabul qilingan oqlash, insonlarga bo'lgan hurmat, inson manfaatlarini hurmat qilish, o'z-o'zini boshqa insonlarga bo'lgan hurmat ijtimoiy yo'naltirilgan prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiriladi. |
| 6-bosqich. Umuminsoniy prinsiplar va axloqiy normalarga yo'naltirilgan | Hatti-harakatlar to'g'ri deb malaka hosil qiladi. Agar pok vijdon bilan yo'naltirilgan bo'lsa, qonuniyligi va boshqa insonlarning fikridan mustaqil ravishda fikrlash. Axloqiy hatti-harakatlar mustaqil ravishda boshqarish inson tomonidan saylangan umuminsoniy etik prinsiplar, masalan tenglik normalari, qadr-qimmat, adolat. Bolalar tegishli norma va prinsiplardan o'z-o'zicha begonalashib ketmasligi uchun insoniylik, |

| | |
|--|--|
| | vijdon azobidan qutulish uchun amal qilishni nazarda tutiladi. |
|--|--|

Axloqiy rivojlanish darajasiga voqelikni to'la ko'rish sabablari orqali javob olindi. Ular bir keying bosqich oldingi bosqichga asoslanayapti. Kolbergning aytishicha odamlar har qanday madaniy muhitda hamma bosqichlarda bir xil tartibda amal qiladilar.

Bu nazariyalar birgalikda olinganda bizni o'zining "men"ini angelaydigan va boshqalar bilan o'zaro ta'sirga kirisha oladigan ijtimoiy mavjudotga aylantiradigan jarayondagi ko'p narsalarni tushunishimizga yordam beradi.

Ijtimoiylashuvning eng muhim omillaridan biri ijtimoiylashuv agentlari hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv agentlari deganda, ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradigan ijtimoiy kontekslar va guruhlarni tushunamiz. Barcha madaniyatlarda oila bola uchun asosiy ijtimoiylashtiruvchi agent hisoblanadi. Keyinroq esa ijtimoiylashuvning yangi ko'plab agentlari paydo bo'ladi.

Hozirgi jamiyatlarda ilk ijtimoiylashuv oilaning kichik miqyosida yuz beradi. Insonlar dunyoga kelishi yangi avlod. Paydo bo'lishi – avlodlar almashuvi asosan oilada sodir bo'ladi. Farzand tug'ilib kamolga yetib, shaxs sifatida shakllanguncha qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim, tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh- urug'iga, qariyalarga, atrof- muhitga va tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. Shi bilan birga oila urf-odatlarini, qadriyatlarni avloddan-avlodga etkazuvchi sotsial institut hisoblanadi.

Oila asosini erkak va ayol o'rtasidagi nikoh birligi tashkil etadi. Oila faqat erkak bilan ayol munosabatini emas, er bilan xotin, ota-onalar bilan bolalar munosabatini ifodalaydi. Oila jamiyat bag'rida tashkil topdi, taraqqiy etib borar ekan, o'zi ham ana shu jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar oila tarqqiyotiga ta'sir etadi.

Oiladagi Ta'lim – tarbiya xususiyatlari jamiyatda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oila va jamiyat o'zaro bog'liq holda taraqqiy etib rivojlanadi.

Britaniyalik ko'pchilik bolalar o'z bolaligini oila davrasida o'tkazganlar va aksincha, boshqa ko'pchilik madaniyatlarda amaki, amma, buvi va bobolar bir oilaning a'zolari hisoblanadilar, bir uyda yashaydilar va hatto juda kichik chaqaloqlarning ham tarbiyachilari bo'ladi. Oilali bolalarning ko'pchiligi oiladan tashqarida haq to'lanadigan ish bilan mashg'ul, ish bilan bitga, bola tug'ilgandan keyin ayollar ishga nisbatan tez qaytadilar. Shunday ko'rinishlarga qaramay, oila odatda, chaqaloqlikdan to o'smirlik davrigacha va keyinroq ham avlodlar vosiligini ta'minlashda ijtimoiylashuvning eng muhim agentligicha qolaveradi.

Turli jamiyatlarga oila boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan turli o'rin egallaydi. An'anviy jamiyatlarning ko'pchiligida oila tug'ilgan induvidning butun umri davomida ijtimoiy mavqeyiga tolaligicha belgilaydi. Hozirgi g'arb jamiyatlarda ijtimoiy mavqeyi to'grisida belgilanmaydi shunga qaramay, qanday xududda yashashi oilaning muayyan sinfga mansubligi bola ijtimoiylashuvi xarakterini ancha qat'iy belgilab beradi. Bolalar ota-onalari yoki atrofdagi odamlarning o'zini tutish modellarini o'zlashtiradilar.

Ijtimoiylashuvning yana bir agenti tengdoshlar guruhi, ya'ni taxminan bir xil yoshdagi bolalarning do'stona kompaniyasi. Taxminan bir xil yoshdagi bolalarning do'stlik munosabatlarini odatda butun umr davomida saqlab qoladilar. Individning ijtimoiylashuvida oilaning ahamiyati, o'z-o'zidan ravshan, chunki yosh bolaning dunyoqatashi dastlab deyarli faqat oila doirasida shakllanadi. Tengdoshlar gurihining ahamiyati, unchalik muhim emas, ayniqsa g'arb jamiyati, vakillari uchun shunga qaramay yoshga qarab turkumlanishning aniq tashqi belgilari bo'lmasa ham, to'rt-besh yoshdan kattaroq bolalar odatda ko'p vaqtlarni shu yoshdagi do'stlari orasidagi o'tkazadi¹.

¹ M.Inomova "Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". Toshkent. 1999-yil.

Ayollarning ko'pchilik qismi ishlayotgan va ularning bolalari bu vaqtda bolalar markazlarida bo'ladigan hozirgi vaziyatda tengdoshlarning munosabatlari avvalgidan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bolaning ota-onalari bilan munosabatga qaraganda munosabatlar "demokratikrok" ekaniga urg'u beradi.

"Tengdosh" so'zi "teng" ma'nosini anglatib bolalar o'rtasida munosabatlari mo'tadil egolitaristik xususiyatga ega shijoatli yoki jismonan kuchliroq bola hukumronlik qilishga intilishi mumkin, biroq tengdoshlarning munosabatlari oila uchun xos bo'lgan tobelikka emas, o'zaro kelishuvga asoslangani uchun ko'p narsa bergan bola ko'proq oladi.

Ijtimoiylashuvning yana bir agenti maktab. Maktab ta'limi rasmiy jarayon, chunki o'rganiladigan predmetlarning majmui maxsus qayd etib qo'yiladi. Biroq maktablar ijtimoiylashuv agentlari sifatida biroz boshqacharoq yo'nalishda ham ta'sir o'tkazadilar¹.

Bolalar sinfda shug'illanishlari, darsda o'zini yaxshi tutishlari, maktab intizomiga rioya qilishlari shart. Ta'lim barcha uchun ochiq bo'libgina qolmay, majburiy ham ekanligi, kambag'al va imtiyozlarga ega bo'lmagan tabaqalarning bolalari muvafaqiyatli o'qishda ijtimoiy-iqtisodiy zinadan yuqoriroq ko'tarilish imkoniga ega bo'ladilar. Hozirgi jamiyatlarda ommaviy ta'lim imkoniyat kengligi ideali bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unga ko'ra, odamlar o'z iste'dod va qobiliyatlarga mos ravishda ijtimoiy mavqeyiga ega bo'ladilar. Biroq amalda ta'lim ko'pincha tengsizlikni bartaraf qilishga emas, balki uni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Kambag'al oilalardan chiqqan bolalar o'zlarining o'qishdagi muvofaqiyatlarni ota-onalari rag'batlantirishga har doim ham umid qila olmaydilar, ayniqsa ota-onalar o'qishga befarq yoki mutlaqo qarshi bo'lsa

¹ P.Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" 1993-yil.

bolalarda maktabga nisbatan xush ko'rmaslik tuyg'usi paydo bo'lishi ham mumkin, chunki ularning maktab na hozir van a kelajakda hayotga aloqasi bo'lmagan vazifalarni qo'yadi.

Hozirgi kunda eng ko'p e'tibor beriladigan OAV ijtimoiylashuv agentlari ichida eng muhimi bo'lib bormoqda.

Davriy nashrlarning yashnashi g'arbda XVIII asr oxiridan boshlanadi. Biroq u paytlarda gazeta va jurnallar tor doiradagi o'quvchilarga mo'ljallanar edi.

Ommaviy axborot vositalarini bosma nashr sifatida tarqatish tez orada elektron muloqot vositalari bilan to'ldiriladi. Britaniyalik bolalar bir yil davomida telaekran oldida maktabda o'tkazilgan yuz kunga teng vaqt o'tkazadilar. Kattalar ham bunga taxminan shuncha vaqt sarflaydilar. Muayyan tipdagi teledasturlarning bolalar va kattalarning ijtimoiy ustanovkalariga qanday ta'sir o'tkazishni tahlil qilishga juda ko'p tadqiqotlar bag'ishlandi, biroq uzil-kesil javoblar olinmadi. Masalan: ekranda zo'ravonlikning ko'rsatilishi bolalar hulqida qay darajada agressivlik keltirib chiqarilishi haqida bir xil fikr yo'q. Biroq OAV lari odamlarning ustanovkalari va dunyoqarashiga juda chuqur ta'sir o'tkazishi hech kimga shubha tug'dirmaydi. Ular shunchalik ko'p axborot o'tkazib beradiki, ularni hech qnday boshqa usul bilan olish mumkin emas. Gazetalar, kitoblar, radio, televedenie, filimlar musiqiy yozuvlar suratli jurnallar bizga o'zimiz hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan narsalar haqida ma'lumot berishadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiylashuv agentlari bolaning Mavzuga oid ibratli so'zlarni bola tarbiyasida qo'llashda foydalanilsa tarbiya jarayoni biz kutgan natija berishi mumkin.

Bular quyidagilar:

-Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa-tarbiyadir.

Demokrit

“Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik- zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyani ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma”

A.Navoiy

“Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga va mashqqa”.

Arastu

“Eskini o’zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo’la oladi”.

Konfutsiy

“Avvalo biz bolalarimizga o’rgatamiz, so’gra o’zimiz ulardan o’rganamiz. Kimki buni xohlamas ekan o’z davridan orqada qoladi”.

“Bola uchun birinchi saboq, mayli, itoatkor bo’la qolsin – shunda sen nimani zarur deb topsang, o’sha ikkinchi sboq bo’ladi”.

T.Fuller

Bolalarning murg’ak qalbiga hech narsa ibratdek kuchli ta’sir etmaydi va barcha ibratlar ichida esa ota-ona ibratidan ko’ra chuqurroq va mustahkamroq o’rin oladigan ibrat yo’q.

N.L.Novinkov

Bolalarni o’stirish va tarbiyalash ulkan, jiddiy va haddan tashqari mas’uliyatli ishdir.

A.S. Makarenko

Xalqning baxt-saodat bolalarni to’g’ri tarbiyalashga bog’liq.

J. Lokk

Bolalar- bizning kelajagimiz! Ular maqsad va g’oyalarimiz yo’lida kurashmoq uchun yaxshi qurollangan bo’lishlari kerak.

N.K.Krupskaya

Bolalarimiz – bizning kelajagimiz. Yaxshi tarbiya- bo'lg'usi g'am-alamlarimiz, ko'z yoshlarimiz, boshqa odamlar oldidagi, butun mamlakat oldidagi aybimiz demak.

A.S.Mokarenko

Bola tarbiyasi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerak.

U.Chenning

Bolasini suyushni tovuq ham biladi. Ularni tarbiyalay olmoq esa- qobiliyat va keng hayotiy bilimlarni talab etuvchi davlat miqyosidagi buyuk ishdidir.

M.Gorkiy

Tarbiya masalasida mayda narsa yo'q.

N.I.Pifagor

Bolalarda o'z-o'zini emas, odamlarni sevish tuyg'usini tarbiyalamoq kerak. Buning uchun ota-onaning o'zi odamlarni sevishi kerak.

F.E.Ozerjinskiy

XULOSA

“Tarbiya” nihoyatda mashaqqatli ish. Mana endi hammasi joyida bo’ladi deb o’ylaysan! Qarasang, ishlar boshqacha: hammasi endi boshlanayotgan bo’ladi” - degan edi buyuk rus shoiri Lermontov Darhaqiqat tarbiya jarayoni bolani ona qornidan boshlanadi.

Tarbiya jaroyoni chaqaloqligidan tortib kata yoshdagi odamgacha odamlar bilan muloqatga kirishish orqali o’zini anglaydigan, o’zi tug’ilgan madaniyatini tushunadigan aqlli mavjudotga aylanish jarayonidir. Bu tushunchaning mohiyatiga, mazmuniga mavzusida to’la to’xtalib o’tdik. Biz asosan bolaning tarbiya jarayoni, oiladagi tarbiyaviy muhit bolaning ijtimoiylashuvi va boshqalarni ko’rib o’tdik. Bundan tashqari bolaning yosh davrlarini ham, bolalik, o’smirlik, o’spirinlik, o’rta yetuklik, keksalik, qarilik, davrlaridan kelib chiqib shuni aytish muhimki inson tug’ilgandan boshlab o’z imkoniyatlari, ehtiyojlari asosida kamol topib, oldiga qo’ygan maqsadlarini amalga oshirish uchunm harakat qiladi. Har bir davrning yosh davri ham muhim o’rin egalar ekan va bosqichlarning o’z vazifalari va imkoniyat doiralari cheklanishini ko’rib chiqdik.

Uning har bir bosqochi o’tish davrlari bo’lib, ularni bosib o’tish va tangliklarini bartaraf etish jarayonlarini o’tish har bir insonning hayotiy yo’lini tashkil qiladi. O’lim ham shunga taalluqli bo’lib, shaxs mavjudligining tugaganligini bildiradi¹.

Bu borada ya’ni bolalarning ijtimoiylashuvi haqida XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida G’arbda ijod qilib kelgan olimlardan Z.Freyd, Y.Piaje, Boulbi, G.Midning olib brogan tadqiqotlari bizni e’tiborga tortadi. Ayniqsa, “Aveyronlik yovvoyi” va “Jeni” kabi o’g’il va qizlarning ijtimoiylashuv bosqichlri bo’lib

¹ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq . “Toshkent” 1996-yil

o'tmasdan, yovvoyi bir hayvon shaklida aylanib qolganligini misol qilishimiz mumkin. Keltirilgan misoldan xulosa qiladigan bo'lsak, endigina tug'ilgan bola insonlar orasidan tashqarida yolg'iz holda o'ssa, uning yurish-turishi, hayvondan farq qilib qolar ekan. Ular hayvonlarga o'xshab sakrab, baqirib, o'z fikrini bildirmoqchi bo'lishar ekan.

Bu ikki hodisada ham olimlar ularni gapirishni, tarbiyani o'rgana olmaydilar. Aveygonlik bola va Jeni voqeasi ijtimoiylashmagan bolalar qanday bo'lishini ko'rsatadi.

Boulbi bolaning tarbiya jarayonida mehr-oqibatning o'rnini beqiyosligini gapirib o'tadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida eng asosiy o'rin ijtimoiylashuv agentlariga berilgan. Ijtimoiylashuv agentlari deganda ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradigan ijtimoiy kontekstlar va guruhlarini tushunamiz. Bularga oila, maktab, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari kiradi.

Barcha madaniyatlarda oila bola uchun asosiy tarbiya agenti hisoblanadi. Keyinchalik esa yuqorida sanab o'tilgan agentlar paydo bo'ladi.

Oila institutining asosiy maqsadi bolalar tarbiyasidir. Farzand oilaning hayotbaxsh kuchi. Bolalarning sharofati bilan hayot yanada shirin, o'lim esa u qadar dahshat solmaydigandek tuyiladi – degan edi ingliz faylasufi Frensis Bekon.

Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo'lib, ota-onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalarga erish olmaydilar.

Hayotining birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish ya'ni uning tarbiyasi bilan shug'ullanish oilaning asosiy vazifasidir.

Ota-onalar oiladagi mas'uliyatli vazifasining naqadar muhimligi shundan iboratki, ular bolaning har bir qadamini, har-bir hatti harakatini zimdan kuzatib boradilar.

Har biro ta-ona o'z farzandini sevadi. Hech kim ulardan yomon va baxtsiz yetishib chiqishini istamaydilar. Farzandining har bir yutug'i ota-onaning yuragini tog'dek kutaradi, faxr va g'urur tuyg'ularini vujudga keltiradi.

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamjihatlik, oilaning yaxshi yo'lga qo'yilgan ichki hayoti, tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada bolalarni tarbiyalashda quyidagi shartlarga rioya qilishni unutmaslik kerak¹.

1-bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni his qilish;

2-bolaga bo'lgan mehr-muhabbatni unga talabchanlik qilish bilan qo'shib olib boorish;

3- bolaga bo'lgan mehr-muhabbatni unga talabchanlik qilish bilan qo'shib olib boorish.

Bu kabi shartlarga rioya qilgan oila rahbarlari oilaning mustahkamligini saqlab qoladi. Bu esa bola tarbiyasining asosiy pog'onasiga tamal toshi qo'yilganidan dalolat beradi.

Biz tug'ilib o'sgan muhitdagi madaniy tartib qoidalar bizning xulq-atvorimizga shunchalik katta ta'sir o'tkazadiki, biz individuaalik va iroda erkiga ega ekanimiz degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Bizni jamiyat tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan qoliplarga majburan tiqish, aytganday tuyuladi.

Albatta, tug'ilishdan to o'limgacha bizning boshqalar bilan ta'sirga bizning shaxsiyatoimiz, hayotiy qadriyatlarimiz va xulq-atvorimizni belgilaydi. Biroq tarbiya o'sha individuallik va erkning ham manbaidir. Tarbiya jarayonida har bir shaxs o'zini anglash, mustaqil fikrlash va harakat qilishga layoqat orttiradi.

Bu esa insonning mukammal shaxsga aylanayotganligidan dalolat.

¹ P.Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" 1993-yil.

Hozirgi kunda yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va yetuk kishilar qilib tarbiyalash quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1-Yuqori aqliy madaniyat, ijodiy mehnat qila olish qobiliyati.

2-Shaxsning ijtimoiy yetukligi.

3-Faol hayotiy yo'l tutish.

4-Ma'naviy fazilatga ega bo'lish.

5-Yuqori estetik madaniyat.

6-Mukammal jismoniy kamolotga erishish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari, shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga qarab belgilanadi.

O'zbekistonda bola tarbiyasi, uning ijtimoiylashuv jarayoniga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Istiqlol tufayli yangi qaddini rostlagan davlatimiz hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari, ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faol kishilarni tarbiyalashni taqazo etadi. Xalq ta'limi sohasida yagona sistemani yaratmay turib, jamiyatimizning ijtimoiy sohasi sifat o'zgarishlariga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etish, uni faollashtirishning yetakchi yo'llarini toppish, shu bilan birga ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lab olib boorish zarurligi to'g'risidagi ta'limotni amalga ro'yobga chiqarish, yoshlarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlashni taqozo etmoqda.

Hozirgi yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va yetuk kishilarqilib tarbiyalash quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1-yuqori aqliy madaniyat malakali ijodiy mehnat qila olish qobiliyati.

2-shaxsning ijtimoiy yetukligi

3-faol hayotiy yo'l tutish

4-ma'naviy fazilatga ega bo'lish

5-yuqori estetik madaniyat

6-mukammal jismoniy kamolotga erishish

Bolalarni tarbiyalash vazifalari shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga qarab belgilanadi.

Bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish, jismoniy, aqliy, axloqiy mehnat va estetik tarbiyadan iboratdir.

Insonning tug'ilishidan to o'limiga qadar tasnif berilgan bu hayotiy sikl – ijtimoiylashuvning bosqichlari hisoblanadi.

Shaxs, uning dunyoni bilishi, o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni anglashi, tushunishi va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarini tahlil qilishi bizga umumiy ravishda shaxs-jamiyatda yashayotgan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya'ni u tug'ilgan onidan boshlab o'ziga o'xshash insonlar qurshovida bo'ladi va uning butun ruhiy imkoniyatlari ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo'ladi. Chunki, agar insonning ontogenetik taraqqiyoti, ya'ni tug'ilgan onidan to umrining oxirigacha bo'lgan taraqqiyot davriga e'tibor beradigan bo'lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi hayotining ilk daqiqakaridayoq, o'ziga o'xshash mavjudotlar darrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqatning barcha ijtimoiy ko'rinishlarining faol ob'ekti va sub'ektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lishi jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari mavzusining muhim vaziyatlaridan biridir. Bu jarayon sotsiologiya va psixologiyada chuqur o'rganilib kelinmoqda¹.

Demak, tarbiya jarayoni inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot faoliyati jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan

¹ M.Inomova "Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". Toshkent. 1999-yil.

aytganga, tarbiya jarayoni ijtimoiylashuv jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ijtimoiylashuv har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari ta'sirini qabul qilgan holda har bir harakati va muomalasidan uni namoyon etish, kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqat va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi.

Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir, oddiy, mexanik tarzda ta'rif berildi.

Bola oilada tug'ilar ekan, albatta shu oila muhitida, shu oila sharoitida tarbiya topadi, o'sadi. Agarda bola mana shu muhitda tarbiya topmasa uni biz ijtimoiylashmagan bolalar deb ataymiz.

G'arb olimlarining ijtimoiylashmagan bolalar haqida bildirib o'tgan fikrlarini yuqorida bilib oldik.

Kattalarning har qanday ta'sirisiz o'sgan bolalar nimaga o'xshab qoladi? O'z-o'zidan ravshanki birorta ham insonparvar shaxs bunday tajribani bajarmaydi. Biroq bir qator maxsus adabiyotlarda keng muhokama qilingan holler yuz berganki, unda bolalar hayotlarining dastlabki yillarida insonlar bilan normal muloqatdan uzilib qolgan. Bolalar rivojining odatdagi jarayonini ko'radigan bolsak, tarbiyani bola rivojiga ta'sirini naqadar ahamiyatli ekanini bilib olamiz.

1800-yil 3-yanvarda Fransiyaning janubidagi Sen-Serin qishlog'ida o'rmondan g'alati maxluq topilgan. U tik turib harakatlanganda 11 yoki 12 yoshli bola ekanini tezda aniqlashsa ham ammo u ko'proq hayvonga o'xshaydi. Chunki shuncha yillardan buyon odamlardan yiroqda o'rmonda yashagan, odamlar bilan muloqatda bo'lmagan bola tabiiyki shunday bo'ladi. Uni mahalliy aholi politsiyaga topshirishdi. Tegishli joylarda bola bilan bir qator ishlar qilingan. Uni kiyim kiyishga o'rgatmoqchi bo'lishgan. Ammo u xohlamagan. Keyinroq uni Parijga olib ketishdi. Unga eng oddiy gigiyena qoidalarini o'rgata olishdi xolos. Oddiy kiyinish

va qopshiqni ushlab ovqat yeyishni. U bir necha so'zni o'rgana oldi xolos. U inson nutqini o'rgana olmayayotganday ko'rinardi. U keying hayotida ko'p narsaga erisha olmadi va 1826 yili taxminan 40 yoshida vafot etdi.

Bolalar hamisha nima bilandir bajonidil band bo'ladilar. Bu juda foydali. Shuning uchun bolani shunday shart-sharoitga qo'ymoq kerakki, toki u yashasin, o'ynasin va mehnat qilsin, o'z quvonch va qayg'ularini boshqa bolalar bilan birga baham ko'rsin – deydi buyuk rus olimasi N.Krukskaya.

Shunday ekan biz bola tarbiyasi borasida aslo xatoga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Ularni vaqti kelsa erkalatib, vaqtida qattiqqo'llik bilan tarbiyalasakgina hayotda o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Farzandlarimiz ham kelajakda vatan ravnaqiga hissa qo'shadigan yaxshi insonlar bo'lib yetishib chiqadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. "Toshkent". 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". "Toshkent". 1997 yil
4. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent. Ma'naviyat 2008-yil
5. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi". "Toshkent" Sharq. 1997 yil
6. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". "Toshkent" O'zbekiston. 1998-y.
7. Каримов И.А.Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: O'zbekiston, 2011.
7. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. "Toshkent" O'zbekiston 2000-y.
8. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. "Toshkent" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti. 1993 yil.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq . "Toshkent" 1996-yil
10. Abdulla Avloniy "Istiqloq fidoiylari "Sharq" Toshkent 1993-yil
11. Abu Rayxon Beruniy "Hikmatlar" "Toshkent" Yosh gvardiya". 1973-yil.
12. J.Tulenov, Z.G'afurov. "Фалсафа" "Toshkent" O'qituvchi -1987 yil
13. R.Mavlonova ,O To'rayeva K.Xoliqberdiyev .Pedagogika "O'qituvchi" 2008-yil
14. V.A.Jadova "Sotsiologiya v Rossii" Moskva Ran-1998 yil.
15. U.Karimova "Psixologiya". A.Qodiriy nomidagi nashryot. "Toshkent" 2002-yil.

16. Yu.N.Dovidov, U.C.Kadalyova “Sovremennaya zapodinaya sotsiologiya”. Moskva 1990-yil.
17. Filip Aris “Inson taraqqiyotidagi alohida bosqich bo’lgan bolalikning tarixiy ildizlarining ziddiyatli tahlili”. 1973 –yil.
18. E.Daddens “Sotsiologiya” Sharq . “Toshkent” -2002 –yil.
19. G.S.Chelponov “Psixologiya, filosofiya obrazovaniye” Moskva. Veronij-1999-yil.
20. ”Istoriya sotsiologiya ” zapodnom Yevrope “Sh.Sh. A” Moskva 1999-yil
21. Karakovskiy “Haqiqiy inson tarbiyalaylik” “Toshkent” 1992-yil.
22. Kazarinova N.V. Filatova O.G. Xrenov Y. “Sotsiologiya” NOTA BENE Moskva -2000 y.
23. L.N.Pavlova. “Ilk bolalikdagi bolalarga ta’lim –tarbiya berish”. “Toshkent” 1990 yil.
24. M.Xalilov. Sh. Fayzullayev “Umumiy psixologiya” 1-qism. A.Navoiy nomidagi S.D.U. 2003 –yil.
25. M.Vohidova “Bolalr psixologiyasi” “Toshkent” 1999-yil.
26. M.Husaniy tarjimas. “Odob bo’stoni va axloq gulistoni”. “Toshkent” Fan-1994 yil.
27. Martin va Pane. I. “Bolalar rivoji ijtimoiy sharoitlarga bag’ishlangan maqollar to’plami”. 1987-yil.
28. N.Abyorkrombi, Stivyen Xill, S.Tyurner “Sotsoilologiya cheskiy slovar” Moskva
29. “Ekonomika” -1995 g.
30. N.Dikson “Hozirgi jamiyatlardagi keksa odamlar muammolarining umumiy manzarasi” 1980 –yil.
31. O.Mo’minov “Xalq og’zaki ijodi va axloqiy tarbiya”. “Toshkent” 1989-yil.
32. O.Musurmonova “Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi”. Toshkent.1996-yil.

33. P.Yusupova. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”. Toshkent “O’qituvchi” 1993-yil.
34. R.Yodgorov, N.G’aybullayev, R.Mamatqulova “Pedagogika”. Toshkent - 2000.
35. Y.Hasanboyev ,N Saribayeva, G.Niyozov “Pedagogika” O’quv qo’llanma. Toshkent “Fan” 2006-yil.
36. N.Azizxujayeva “Pedagogik mahorat va pedagogic texnologiya”. Toshkent.
37. A.Minavarov . “Pedagogika”. Toshkent “O’qituvchi” 1986-yil.
38. M.Inomova “Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi”. Toshkent. 1999-yil.
39. www.pedagog.uz.
40. www.Ziyonet.uz.